

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ALOQA, AXBOROTLASHTIRISH
VA TELEKOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI DAVLAT
QO‘MITASI
TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI**

Qo‘l yozma huquqida

UDK 004.4: 378

BOBOJANOVA INTIZOR QODIRBERGANOVNA

**Iqtidorli talabalarga o‘quv-uslubiy interaktiv xizmat ko‘rasatish dasturiy
ta‘minotini yaratish**

5A330201 - Kompyuter tizimlari va ularning dasturiy ta‘minoti

**Magistr
akademik darajasini olish uchun yozilgan
dissertatsiya**

**Ilmiy rahbar:
f .-m. f.n dotsent Xaydarov B.Q.**

Toshkent - 2013

MUNDARIJA

Kirish.....	4
I bob. Interaktiv xizmat ko'rsatuvchi dasturiy vositalarni yaratishning nazariy asoslari.....	10
1. Interaktiv xizmat ko'rsatuvchi dasturiy vositalar sharhi	10
2. O'quv-uslubiy interaktiv xizmat ko'rsatuvchi dasturiy vositalarning ta'lim tizimidagi ro'li	14
3. O'quv-uslubiy interaktiv xizmat ko'rsatuvchi dasturiy vositalarning afzalliklari.....	18
I bob bo'yicha xulosa.....	23
II bob. Iqtidorli talabalarga mo'ljallangan o'quv-uslubiy interaktiv xizmat ko'rsatuvchi dasturiy ta'minotlarni loyihalash va ishlab chiqish asoslari.....	24
1. O'quv-uslubiy interaktiv xizmat ko'rsatuvchi dasturiy ta'minotlarni loyihalash va yaratish asoslari.	24
2. Iqtidorli talabalarga mo'ljallangan o'quv-uslubiy interaktiv xizmat ko'rsatuvchi dasturiy ta'minotlarning tarkibiy tuzilmasi	32
3. Iqtidorli talabalarga o'quv uslubiy interaktiv xizmat ko'rsatuvchi dasturiy ta'minotlarni yaratish texnologiyalari.....	36
II bob bo'yicha xulosa.....	56
III bob. O'quv-uslubiy interaktiv xizmat ko'rsatuvchi talant.atdt.uz dasturiy ta'minotni yaratishning texnologik asoslari	57
1. O'quv uslubiy interaktiv xizmat ko'rsatuvchi talant.atdt.uz dasturiy ta'minotning maqsadi va vazifalari.....	57
2. O'quv-uslubiy interaktiv xizmat ko'rsatuvchi talant.atdt.uz - dasturiy ta'minotining foydalanuvchi interfeysini yaratish.....	60
3. talant.atdt.uz dasturiy ta'minotdan foydalanish bo'yicha yo'riqnoma..	64
III bob bo'yicha xulosa.....	68

Xulosa.....	69
Adabiyotlar ro‘yxati.....	70
Ilova.....	73

KIRISH

Dissertasiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi:

Talabalarning ilmiy-ijodiy faoliyatini tashkil etish va muvofiqlashtirish respublikamiz ta'lim muassasalari oldida turgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Bu yo'nalishdagi ishlar "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"da belgilangan vazifalardan, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining ustivor yo'nalishlaridagi dolzarb ilmiy, ilmiy-texnikaviy muammolardan kelib chiqqan holda, tasdiqlangan me'yoriy-uslubiy hujjatlar asosida tashkil etiladi. Xususan, iqtidorli talabalarning ilmiy-ijodiy faoliyatini tashkil qilish O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim vazirligining 2002-yildagi 279-sonli "Oliy o'quv yurtlarida iqtidorli talabalar bilan ishlash faoliyatini yanada takomillashtirish choralari haqida"gi hamda 2007-yil 28-fevraldagi 37-sonli "Vazirlik tizimida ilmiy-texnik kengash tashkil qilish, oliy ta'lim muassasalarida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar hamda talabalar ilmiy-ijodiy faoliyatini tashkillashtirish va muvofiqlashtirish to'g'risida"gi buyruqlari, vazirlikning "Iqtidorli talabalarni izlash, aniqlash va ularni maqsadli tayyorlash to'g'risida"gi nizomi hamda tegishli xatlari va ko'rsatmalari asosida olib boriladi.

Iqtidorli talabalarning ilmiy-ijodiy faoliyatini tashkil qilish va uni muvofiqlashtirib borishni Toshkent axborot texnologiyalari universitetida orttirilgan tajriba asosida keltiramiz. Universitetda "Iqtidorli talabalarning ilmiy jamiyati" tuzilgan bo'lib u samarali faoliyat olib bormoqda. Har yili o'tkaziladigan "Ilmiy g'oyalar yarmarkasi"da iqtidorli talabalarining ilmiy tadqiqot ishlari natijalari namoyish etib boriladi. Bu ishlarning pirovard natijasi iqtidorli talabalarning kelgusida ilmiy-tadqiqot ishlarini davom ettirishiga asos bo'lib xizmat qilib, universitetda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar ko'lamini yanada kengaytirishga, olinayotgan ilmiy natijalarni ta'lim va ishlab chiqarishga keng joriy qilishga yo'naltirilmoqda.

Iqtidorli talabalar bilan ishlash ko'lamining kundan-kunga kengayib borishi iqtidorli talabalarni izlash, aniqlash, ularni maqsadli tayyorlash va ilmiy-

ijodiy faoliyatga jalb qilish ishlarni muvofiqlashtirib borishni taqozo etadi. Shuningdek, iqtidorli talabalar bazasini, ularga yetkazilishi kerak bo'lgan axborotlar oqimini boshqarib borish hamda ular faoliyatini doimiy kuzatish va monitoring qilib borish muammolarini keltirib chiqaradi. Bu yo'nalishdagi ishlarni axborot texnologiyalari asosida tashkil qilish va olib borish bu muammolarning ko'pchiligini hal qilishga imkon beradi.

Aynan shu maqsadda, Toshkent axborot texnologiyalari universitetining iqtidorli talabalari bilan ishlash, ularning ilmiy-ijodiy ishlarga yo'naltirishga va ularga interaktiv xizmatlar ko'rsatishga mo'ljallangan *talant.atdt.uz* sayti yaratildi.

Bu sayt Toshkent axborot texnologiyalari universitetida iqtidorli talabalar bilan ishlash bo'limi bilan ish olib borish uchun yaratilgan. Toshkent axborot texnologiyalari universitetida iqtidorli talabalar bilan ishlash bo'limi vazifalari quyidagicha: universitetda iqtidorli talabalarni aniqlash, ularni ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb qilish va olib borilayotgan ishlarni muvofiqlashtiruvchi tashkiliy markazdir. Bo'lim kafedralar va dekanatlar yordamida iqtidorli talabalarni aniqlaydi va tanlaydi, ularni o'zlari qiziqqan fan sohalari bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlariga yo'naltiradi va buning uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishda faol ishtirok etadi.

Bo'lim universitet professor-o'qituvchilari tomonidan olib borilayotgan ilg'or ilmiy-tadqiqot ishlariga iqtidorli talabalarni jalb qiladi va ularning to'la ishtirokini ta'minlaydi. Iqtidorli talabalar ilmiy-tadqiqot ishlarining mamlakatimizdagi boshqa ilmiy markazlar va institutlar hamda xorijda olib borilayotgan ilmiy izlanishlar bilan aloqasini o'rnatadi.

Kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim muassasalarida iqtidorli talabalar bilan ishlash jarayoni yetarli darajada virtuallashtirilmagan va ularga ko'rsatilayotgan interaktiv xizmat turlari kam hamda talab darajasida emas. Shu sababdan, ushbu tadqiqot ishi - « Iqtidorli talabalarga o'quv-uslubiy interaktiv xizmat ko'rsatish dasturiy ta'minotini yaratish » deb nomlangan dolzarb mavzuga bag'ishlangan.

Tadqiqot ob’ekti va predmetining belgilanishi: Tadqiqot ob’ekti sifatida TATU iqtidorli talabalar bilan ishlash jarayoni belgilandi. Dissertatsiya ishining tadqiqot predmeti sifatida esa TATU iqtidorli talabalar bilan ishlash jarayoni ma’lumotlar bazasi vertuallashtirilsh maqsadida iqtidorli talabarga o’quv-uslubiy interaktiv xizmat ko’rsatish dasturiy ta’minoti – alohida veb saytni loyihalashtirish, yaratish va u orqali talabalarga ko’rsatilayotgan interaktiv xizmatlar samarasi oshirish muammosi olindi.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari: Mazkur dissertatsiya ishining maqsadi iqtidorli talabalarga mo’ljallangan o’quv-uslubiy interaktiv xizmat ko’rsatuvchi, iqtidorli talabalar bilan ishlash jarayonini vertuallashtiruvchi dasturiy ta’minotni ishlab chiqishdan iborat bo’lib, iqtidorli talabalar ehtiyojlaridan kelib chiqib mazkur dasturiy ta’minot yordamida ularga interaktiv xizmat ko’rsatishni optimallashtirish tadqiqot vazifasi qilib belgilangan.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari: Tadqiqotning asosiy masalasi qilib TATU iqtidorli talabalar bilan ishlash jarayonini AKT asosida takomillashtirish muammosi olingan. Tadqiqotning farazi - iqtidorli talabalar haqidagi ma’lumotlar bazasi vertuallashtirilib, alohida veb sayt yaratilganda hamda u asosida talabalarga interaktiv xizmatlar ko’rsatilganda, iqtidorli talabalar bilan ishlash samarasi ortadi.

Mavzu bo’yicha qisqacha adabiyotlar tahlili: Jami manbalar soni 28 ta bo’lib, ulardan me’yoriy-huquqiy hujjatlar - 4 ta , darslik va o’quv qo’llanmalar - 11ta, ilmiy maqolalar - 5ta, 2 ta chet-el adabiyotlari, va internet saytlari - 7 tani tashkil qiladi. Mazkur dissertatsiya ishini bajarish davomida Расулев Д.М., Комилов Ш.М., Машарипов А.К., Жумабоев К.Т. Ибрагимов Э.У., Мусаева М.А. “ Web-сайтни лойихалаш”, Зокирова Т.А., Машарипов А.К., Мусаева М.А., Иброҳимов Э.У. “Web–дастурлаш “, Томсон Л. и Веллинг Л. “Разработка Web – приложений на PHP и MySQL”, Nazirov Sh.A., Qobulov R.V. “SQL va ma’lumotlar bazalarining keyingi dasturlash” kabi adabiyotlardan foydalanildi.

Tadqiqotda qo'llanilgan uslublarning qisqacha tavsifi: Tadqiqot davomida so'rov-intervyular, loyihalash, ma'lumotlar tahlili, vizuallashtirish, ob'yektga yo'naltirilgan dasturlash hamda matematik modellashtirish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati: Iqtidorli talabalarga mo'ljallangan o'quv-uslubiy interaktiv xizmat ko'rsatuvchi, iqtidorli talabalar bilan ishlash jarayonini vertuallashtiruvchi dasturiy vositani yaratishning nazariy asoslari yaratildi. U asosida talant.atdt.uz veb sayti yaratildi va TATU miqyosida joriy etilib, sinovdan o'tkazildi hamda takomillashtirildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi: Zamonaviy veb-texnologiyalar asosida iqtidorli talabalar uchun mo'ljallangan dasturiy ta'minotni yaratishning ilmiy asoslari ishlab chiqildi va uni ehtiyojlardan kelib chiqib interaktiv xizmatlar ko'rsatish jarayoni optimallashtirish imkoniyatlari tadqiq qilindi.

Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi: Mazkur dissertatsiya ishi o'z ichiga kirish, 3 ta bob, shu jumladan 9 paragraf, xulosa va ilovalarni o'z ichiga olgan 101 sahifadan iborat bo'lib, uning mazmuni quyidagi mavzularni o'z ichiga olgan:

Magistrlik ishining birinchi bobida interaktivlik va interaktiv xizmat tushunchasi, interaktiv xizmat ko'rsatuvchi va o'quv –uslubiy interaktiv xizmat ko'rsatuvchi dasturiy vositalar haqida so'z yuritilgan. O'zbekiston Respublikasida o'quv-uslubiy interaktiv xizmat ko'rsatuvchi dasturiy vositalarni ro'li, hozirgi kunda yurtimizda o'quv uslubiy interaktiv xizmat ko'rsatuvchi dasturiy vositalar haqida hamda dasturiy vositalarning afzalligi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Ikkinchi bobda o'quv-uslubiy interaktiv xizmat ko'rsatuvchi dasturiy vositalarni loyihalashtirish va yaratish uchun talablar tanlab olindi va iqtidorli talabalarga mo'ljallangan o'quv-uslubiy interaktiv xizmat ko'rsatuvchi dasturiy vositaning tuzilishi va uning o'ziga hos xususiyatlari, ayrim muammolarini ko'rib chiqildi. Iqtidorli talabalarga o'quv-uslubiy interaktiv xizmat ko'rsatuvchi dasturiy ta'minotni yaratish texnologiyalari o'rganildi.

Uchunchi bobda yaratilgan dasturiy vositaning maqsadi va vazifalari to'liq yoritib o'tildi, o'quv-uslubiy interaktiv xizmat ko'rsatuvchi talant.atdt.uz - dasturiy ta'minotining foydalanuvchi interfeysini yaratish hamda dasturiy ta'minotni ishlatish bo'yicha yo'riqnomalar kelterilib o'tilgan.

Tadqiqot ishlari 2011-2013 yillar davomida olib borildi va bajarilgan ishlar natijalari quyidagi anjumanlarda ma'ruza qilingan:

1. «Amaloy matematika va information texnologiyalarning dolzarb muammolari – Al-Xorazmiy 2012» xalqaro ilmiy anjumanda, Toshkent, 2012- yil, 19-22 – dekabr;
2. “Axborot texnologiyalari va telekommunikatsiya muammolari” Yosh olimlar, tadqiqotchilar, magistrilar va talabalarning respublika ilmiy-texnik konferensiyasida, Toshkent, 2013- yil, 14-14 – mart;

Dissertatsiya ishi natijalari quyidagi anjumanlar materiallari to'plamlarida chop etilgan:

1. Xaydarov B.Q., Bobojanova I.Q. “Ta'lim muassasalarida iqtidorli talabalar ilmiy-ijodiy faoliyatini axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil qilish”, «Amaloy matematika va information texnologiyalarning dolzarb muammolari – Al-Xorazmiy 2012» xalqaro ilmiy anjuman materiallari to'plami II, 2012- yil, 19-22 – dekabr, 147-148 betlar;
2. Babajanova I.Q., Xaydarov B.Q. “tatu talant.atdt.uz veb-saytida iqtidorli talabalarga o'quv-uslubiy interaktiv xizmatlar ko'rsatish”, “Axborot texnologiyalari va telekommunikatsiya muammolari” Yosh olimlar, tadqiqotchilar, magistrilar va talabalarning respublika ilmiy-texnik konferensiyasi ma'ruzalar to'plami, 2-qism, 2013- yil, 14-14 – mart, 87-89 betlar.

Shu o'rinda, ilmiy rahbarim ATDT kafedrası dotsenti B.Q.Xaydarovga dissertatsiya ishi bo'yicha bergan qimmatli maslahatlari va e'tiborlari hamda kafedra assistenti K.Kerimovga dasturiy ta'minorni yaratishda ko'rsatgan amaliy yordamlari uchun o'z minnatdorchiligimni bildiraman.

I BOB. INTERAKTIV XIZMAT KO'RSATUVCHI DASTURIY VOSITALARNI YARATISHNING NAZARIY ASOSLARI

1. Interaktiv xizmat ko'rsatuvchi dasturiy vositalar sharhi

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari xayotimizning barcha jabhalariga izchil kirib bormoqda. Mamlakatimizda axborotlashgan jamiyat qurish bo'yicha xalq ho'jaligi sohalarida, ishlab chiqarish va ta'lim tizimida keng miqiyosda islohatlar olib borilmoqda. Axborotlashtirish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarni jadal rivojlantirish hamda jamiyatning barcha sohalarida undan samarali foydalanish borasida ustivor yo'nalishlar belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2002-yil 30-maydagi "Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to'g'risida"gi farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 30-iyundagi 200-sonli "Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish chora tadbirlari to'g'risida"gi qarorining qabul qilinishi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarni sohalarga singdirish va ularni rivojlantirish borasida jadal qo'yilgan qadamlar hisoblanadi.

Jumladan, davlat va ho'jalik boshqaruvi, mahalliy davlat hokimiyati o'rganlari faoliyatining samaradorligini oshirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalardan foydalangan holda jismoniy va yuridik shahslar orasida tezkor muloqat va o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish, shuningdek, taqdim etiladigan xizmatlardan keng qamrovli foydalanishni ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007 yil 23 avgustidagi 181-son qarori asosida «Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda interaktiv davlat xizmatlari haqidagi nizom» va «Bazaviy interaktiv davlat xizmatlari reyestri» tasdiqlangan.

Ta'lim sohasini kompyuterlashtirish va avtomatlashtirish, boshqaruvda axborot texnologiyalaridan foydalanish borasida salmoqli islohatlar amalga

oshirilmoqda. Jumladan, ta'lim muassasalarining o'quv laboratoriya va texnik jihozlar, kompyuterlar, multimediali elektron resurslar, darsliklar va o'quv qo'llanmalar bilan ta'minlanganligi hamda masofaviy ta'limni joriy etish uchun etarli asos yaratilganligi bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Endilikda axborotlashgan jamiyat sohalarida ma'lumotlarga ishlov berish, qayta ishlash, maqsadga ko'ra ularni shakllantirish va real vaqt oralig'ida o'z egasiga etkazib berish kabi mahsus xizmatlarni amalga oshiruvchi avtomatlashgan axborot tizimlari yordamida ko'rsatiladigan interaktiv xizmatlarga talablar kundan-kunga ortib bormoqda.

AKT sohasida interaktivlik tushunchasi texnik muloqot vositalari, kompyuter, dasturiy ta'minot hamda foydalanuvchilar orasida o'zaro muloqotni tashkil etishni anglatadi.

AKT ga asoslangan interaktiv xizmat deganda iqtisodiyotning biror sohasi, muassasa yoki tashkilotda kechayotgan voqelik, ishlab chiqarish va texnologik jarayonlar haqidagi avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimi bazasidagi axborotlarga bo'lgan ehtiyojlarni AKT asosida axborot iste'molchilariga o'zaro interaktiv muloqot yordamida etkazib berish tushuniladi.

Demak, har qanday soha, muassasa va tashkilotda interaktiv xizmatlarni amalga oshirish uchun avvalambor, ular texnik jihozlar, kompyuterlar va ularga mos zamonaviy dasturiy ta'minotlar bilan ta'minlangan hamda avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimiga ega bo'lishi zarur.

Hozirgi vaqtda, hukumatimiz tomonidan interaktiv xizmatlarni shakllantirish, tashkil etish va ularni boshqarishga katta e'tibor berilmoqda. Interaktiv xizmatlarni tashkil etishning eng tez va yaxshi yo'li - bu ularni internet tarmoqlari orqali amalga oshirish hisoblanadi. Internet tarmog'i orqali ko'rsatiladigan interaktiv xizmat turlariga quyidagilar kiradi:

Transport vositalarning harakatlanish jadvali. Respublikadagi transport vositalarini harakatlarini ifodalash jadvali bir nechta saytlarda berilgan. Foydalanuvchi saytdan o'ziga maqul transport vositalarini qatnovi jadvallari haqidagi ma'lumotlarni topadi. Quyida ushbu veb sahifalarni keltirilgan:

www.tgpt.uz - ushbu veb sayt orqali Toshkent shahridagi transport vositalari harakatlanish jadvallari to'g'risidagi ma'lumotlari bilan tanishish mumkin.

Avia reyslar jadvali. Avia reyslari bo'yicha ma'lumotlar jadvalini aniqlash, ulardan foydalanish uchun uzairways.com - O'zbekiston havo yo'llari aviya kompaniya veb sahifasiga murojat qilinadi. Saytda xalqaro va O'zbekiston miqyosidagi aviya qatnov jadvallari keltirilgan.

Temir yo'l transporti qatnovi jadvali. Respublika ichki va tashqi temir yo'l qatnovlari jadvallari va ular haqidagi ma'lumotlarni quyidagi veb sahifalardan topish mumkin.

uzrailpass.uz- temir yo'l transport qatnovi jadvali.

www.roxanatour.com - Bu sayohlik firmasi sayti bo'lib, bunda siz xalqaro va O'zbekiston ichidagi temir yo'l qatnovlari va havo yo'llari qatnovi jadvallari va u erda joylashgan mehmonxonalar haqida ma'lumot va buyurtmalar majmualarini aniqlashingiz mumkin.

www.bank.uz- O'zbekistondagi barcha banklar haqidagi ma'lumotlar va yangiliklar, kunlik valyuta kurslari haqidagi ma'lumotlari olish mumkin.

Davlat boshqaruv va ho'jalik yurituvchi organlar veb sahifalari orqali ko'rsatiladigan interaktiv xizmatlar.

Interaktiv davlat xizmati - idoralar tomonidan idoralarning axborot tizimlari vositasida telekommunikatsiyalar tarmog'i orqali jismoniy va yuridik shahslarga axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda ko'rsatiladigan xizmatlar.

Interaktiv davlat xizmati quyidagi shakllarda ko'rsatiladi:

- umumiy foydalaniladigan axborotni e'lon qilish (tarqatish) - tegishli axborot tizimlari, shu jumladan Internet orqali davlat axborot resurslaridan foydalanish bo'yicha xizmatlarni realizatsiya qilish;
- bir tomonlama o'zaro hamkorlik - elektron shakldagi hujjatlarning har hil formulalaridan foydalanish imkoniyatini berish;

- ikki tomonlama axborot ayirboshlash - so'rov bo'yicha qabul qilish, tahlil (ko'rib chiqish) va javob yuborishni o'z ichiga oladigan idora xizmatlari (buyurtmanomalar va murojatlarni taqdim etish, ularni qayta ishlash natijalarini taqdim etish yoki berish);
- elektron shakldagi ma'lumotlar to'liq ayirboshlanishini amalga oshirish, shu jumladan xizmatlar ko'rsatish va ularga haq to'lash shaklida ko'rsatilishi mumkin.

Bugungi kunda davlat organlarining veb-saytlari orqali aholiga interaktiv davlat xizmatlari asosida 384 turdagi interaktiv xizmatlar ko'rsatilmoqda.

Quyidagi veb sahifalardan davlat boshqaruv va ho'jalik yurituvchi organlar veb sahifalari orqali ko'rsatiladigan interaktiv xizmatlari, ular faoliyati haqidagi yangiliklar, xabarlarni topish mumkin.

- O'zbekiston Respublikasi hukumatinnig portali. <http://www.gov.uz>
- O'zbekiston Respublikasi hukumatinnig portali. www.aci.uz

2. O‘quv-uslubiy interaktiv xizmat ko‘rsatuvchi dasturiy vositalarning ta’lim tizimidagi ro‘li

Hukumatimiz tomonidan ta’lim soha sining rivojiga, barkamol avlodni yuksak-ma’naviyatli, zamonaviy bilimlar egasi bo‘lishiga alohida e’tibor qaratilishi ta’lim tizimini tubdan yangilab, jaxon andozalariga mos ravishda tashkil etishga undamoqda. 2012-yil fevral oyida Toshkent shahrida o‘tkazilgan “Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti” mavzusidagi xalqaro simpoziumda ta’lim tizimiga bo‘lgan ezgu munosabat yaqqol o‘z isbotini topganligini aytish joiz. Bugungi axborotning globallasuvi jarayonida ta’lim tizimini axborot-kommunikatsiya texnologiyalar bilan uyg‘unlikda olib borish samarali natijalar berishi aynan haqiqat.

Bu sohada erishilgan yutuqlar qatoriga xalq ta’limi vazirligi tasarrufida “Axborot-ta’lim portali”ning yaratilishi, Multimediya umumta’lim dasturlarini rivojlantirish markazining ishga tushirilishi, Ziyonet ijtimoiy axborot-ta’lim tarmog‘ining tashkil etilishi va har bir ta’lim muassasasida axborot-resurs markazlarini tashkil qilinishi hamda ularni veb-saytlarini Internet tarmog‘iga qo‘yilishini keltirish mumkin.

Shuningdek, oliy ta’lim muassasalarda ta’lim tizimini avtomatlashtirish borasida bir qator dasturiy ta’minotlar yaratilgan. Lekin, mavjud dasturiy ta’minot ma’lumotlar bazalarini umumlashtirish, yagona axborot makoniga aylantirish dolzarb muammoligicha qolmoqda. Rivojlangan mamlakatlar ta’lim tizimida qo‘llanilayotgan, yirik kompaniya va firmalar tomonidan yaratilgan dasturiy ta’minotlardan, ta’lim tizimida to‘g‘ridan-to‘g‘ri foydalanish ta’limga noto‘g‘ri yondashuvni keltirib chiqaradi. Chunki, har bir davlatning ta’lim sohasidagi siyosati va ta’lim tizimini boshqarish usullari turlichadir. Demak, ta’lim tizimi faoliyatidan kelib chiqqan holda, rivojlangan davlatlar tajribasidan foydalanib dasturiy ta’minotlarni yaratish muhim ahamiyatga molik.

Shu bois, ta'lim sohasi faoliyatini to'liq avtomatlashtirish asosida yagona axborot-ta'lim muhitini yaratish va uni joriy etish bugungi kunning muhim, dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida o'quv-uslubiy interaktiv xizmat ko'rsatuvchi dasturiy vositalar katta ro'l o'ynaydi. Hozirgi kunda yurtimizda o'quv uslubiy interaktiv xizmat ko'rsatuvchi dasturiy vositalardan biri bu Inter-VUZ saytidir. Oliy ta'lim muassasalarda interaktiv xizmatlar ko'rsatish tizimini tashkil etuvchi axborot-ta'lim dinamik muhiti, ya'ni axborot boshqarish tizimini va undagi axborotlar asosida foydalanuvchilarga interaktiv xizmatlarni ko'rsatish qobig'ida interaktivlikni namoyish etish, albatta shakllantirilgan dasturiy ta'minot hamda undagi ayrim elementlari bilan bog'liq. Inter-VUZ tizimining interaktivlik elementlari quyidagilardan kiradi:

- Yangiliklar tasmasi. Oliy ta'lim muassasalarda ichki ob'ektlari haqidagi ma'lumotlarni beruvchi statik yangilik va tegishli axborotlarni (o'zgarmas veb sayt) o'z ichiga oladi. Har bir ob'ekt o'zining shaxsiy veb saytlariga ega bo'lib, uni ob'ekt administratori yangilab boradi va avtomatlashgan shaklda axborotlarning kalendarli arxivi shakllantiriladi.
- Forum. Ota-onalar va tashqi muhit foydalanuvchilar, oliy ta'lim muassasalarda talabalari va o'qituvchilari, raxbariyat va xodimlar o'zaro muloqat qilishlari hamda barcha turdagi foydalanuvchilari darajali administratorlari bilan bog'lanib, xabarlar almashadilar.
- Xabarlar almashish. Foydalanuvchilar xizmat vazifalari va darajalariga qarab shaxsga nisbatan "birga bir", "birga ko'p" va "ko'pga bir" tamoyillari bilan xabarlar avtomatlashgan turda yoki inson tomonidan jo'natishi va javob berishi mumkin. Misol uchun talabani darsga qatnashmaganligi avtomat shaklda ota-onalarga etkazilishi kabi. Xabarlar almashishida turli vositalardan foydalaniladi, jumladan elektron pochta, mobil aloqa vositalari kiradi.
- Savol-javob (chat). Tizim foydalanuvchilari bir-birlari bilan real vaqtda savol-javob qilish imkonini beradi.

- Fikr bildirish. Tizimda faoliyat olib boruvchi foydalanuvchilarga va oliy ta'lim muasasalarida ob'ektlarda taqdim etilayotgan axborotlarga nisbatan barcha foydalanuvchi shahslar ochiq va anonim shakllarda fikrlar va izohlar bildirishi mumkin.
- Ovoz berish. Foydalanuvchi hohishiga ko'ra tizimdagi axborot resurslari, ob'ektlar faoliyatiga turli mezonlar bilan interaktiv shaklda ovoz berishi mumkin.
- Hisoblagich. Ob'ektlardagi axborotlarni ko'rishlari va resurslarni ko'chirib olishlar sonini tizim avtomatik turda hisoblab turadi.
- Ma'lumotlar bilan ishlash. Tizimda bevosita faoliyat olib boruvchi foydalanuvchilar tegishli ma'lumotlari bilan ishlaydi. Ma'lumotlarni kiritish maydonlari mos turda quyidagi xususiyatlariga ega:
 - maydonlar o'ziga mos bo'lmagan axborotlardan himoyalangan bo'lib, foydalanuvchiga turli ko'rsatmalar beradi;
 - kiritilgan yoki tanlangan ma'lumotlar asosida keyingi ma'lumotlarni avtomatik ravishda kiritish taklif qilinadi;
 - kiritilgan ma'lumotlar va fayllar tizim axborot muxitida mavjudligi tekshirilib, takroriy ma'lumotlarning oldi olinadi.
- Ma'lumotlarni izlash. Tizimdan zarur ma'lumotlarni izlash butun tizim doirasida, oliy ta'lim muasasalarida kesimida, ob'ekt kesimida, bir xillikni tashkil etuvchi ob'ektlar kesimida katologlarga ajratilgan holda amalga oshirilishi mumkin. Ma'lumotlarni izlashda foydalanuvchi axborotning dastlabki simvollarini kiritishi bilan asosida tizim bazasidan ma'lumotlar saralanadi va ro'yhat shaklida tanlashni taklif etiladi. Misol uchun elektron adabiyotlarni izlashda foydalanuvchiga shunday interaktivlik imkoniyati yaratilgan.
- Kerakli manzil ma'lumotlariga o'tishlar. Tizim axborot muxiti juda katta hajmdagi ob'ektlar va ma'lumotlarni o'z ichiga olgan bo'lsa ham, kerakli tugunlarga o'tishlar foydalanuvchi uchun qulaylashtirilgan. Tizim avtomatik

tarzda foydalanuvchi xizmat faoliyatiga qarab turgan tugunni hisobga olgan holda unga yaqin bo'lgan tugunlarni taklif qilib turadi.

Bu keltirilgan xizmat turlari interaktivlik xususiyatlarini qamrab olgan bo'lib, u foydalanuvchi va ob'ektlarga nisbatan tizim tomonidan kerakli o'rinlarda taklif qilinadi.

Mamlakatimizda yana bir o'quv uslubiy interaktiv xizmat ko'rsatuvchi sayt mavjud bu sayt my.estudy.uz saytidir. Bu sayt masofali ta'lim tizimidir u akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari, oliy ta'lim muassasi talabalariga masofadan ta'lim berish uchun yaratilgan tizimdir. Hozirda tizim Toshkent axborot texnologiya universiteti talabalari va Toshkent axborot texnologiya universiteti qoshidagi akademik litseylarga fizika, matematika fanlarini interaktiv ko'rinishda ta'lim olishga xizmat ko'rsatib kelmoqda.

3. O‘quv-uslubiy interaktiv xizmat ko‘rsatuvchi dasturiy vositalarning avzalliklari

Bugungi kunda davlat boshqaruvi tizimidagi tashkilotlarda fuqarolarga interaktiv davlat xizmatlarini ko‘rsatish ustida ko‘plab ilmiy-izlanishlar olib borilmoqda. Ilmiy-amaliy tadqiqotlarning tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, bugungi kunda mavjud bo‘lgan interaktiv xizmat ko‘rsatish texnologiyalarining amaliyotda etarli samara bermayotgani sezilmoqda. Elektron shaklda ma’lumotlarning to‘liq ayirboshlashini, so‘rovlarni rasmiylashtirish tartiblarini jadallashtirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish asosida davlat organlari bilan tadbirkorlik sub'ektlari va aholining o‘zaro hamkorligi samaradorligini oshirishni ta’minlash uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2012- yil 30- dekabrda 378-sonli “Interaktiv davlat xizmatlari ko‘rsatishni hisobga olgan holda internet tarmog‘ida O‘zbekiston Respublikasining hukumat portali faoliyatini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorini qabul qiladi. Ushbu qarorga ko‘ra:

- Jismoniy va yuridik shahslarning davlat va ho‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari xizmatlari va funksiyalari to‘g‘risidagi ma’lumotlardan foydalanishi;
- Foydalanuvchilarga elektron shaklda ma’lumotlar ayirboshlash, davlat va ho‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlarining integratsiyalangan interaktiv davlat xizmatlaridan, shu jumladan pulli asosda foydalanishning yagona nuqtasi orqali so‘rovlarni rasmiylashtirish imkoniyatlari berilishini;
- Jismoniy va yuridik shahslarning yagona portal faoliyati bilan bog‘liq so‘rovlari va murojaatlarini hisobga olish, shu jumladan davlat va ho‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlarining interaktiv davlat xizmatlari ko‘rsatish sifati monitoringi olib borilishini ta’minlaydi.

Yuqorida qabul qilingan qarorga asosan davlat va ho‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan birgalikda davlat xizmatlarini bosqichma-bosqich interaktiv davlat xizmatlariga o‘tkazish va yig‘ma reestrga kiritishning aniq muddatlarini belgilagan holda davlat tizmatlari ro‘yhatini tasdiqlashi o‘z ichiga oladi.

Intrekativ xizmatlar tizimini joriy etishdan maqsad - jismoniy va yuridik shahslar uchun qulay sharoit yaratish hisoblanadi. Yana bir muhim tomoni - taraqqiyot mahsuli vaqtni tejash va qaysidir miqdorda ortiqcha harajatlarga yo‘l qo‘ymaslik imkonini berayapti.

O‘zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali to‘g‘risidagi Nizom “Axborotlashtirish to‘g‘risida”shi O‘zbekiston Respublikasi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat va ho‘jalik boshqaruvi, mahalliy davlat hokimiyati organlarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda yuridik va jismoniy shahslar bilan o‘zaro hamkorligini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi 2007- yil 23- avgustdagi 181- son, “Internet tarmog‘ida O‘zbekiston Respublikasining hukumat portalini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2007- yil 17- dekabrda 259- son qarorlariga muvofiq interaktiv davlat xizmatlaridan foydalanishda axoli va tadbirkorlik sub'ektlarining davlat va ho‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan o‘zaro hamkorligi shartlari va tartibini belgilaydi.

Quyidagi asosiy tushuncha va atamalarining ma’no-mazmunini bilish talab qilinadi:

- yagona interaktiv davlat xizmatlari portali - foydalanuvchilarning interaktiv davlat xizmatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlardan erkin foydalanishini, shuningdek elektron shaklda davlat xizmatlari ko‘rsatishni ta’minlovchi Internet tarmog‘ida O‘zbekiston Respublikasining hukumat portalidagi ma’lumot-axborot portali;
- foydalanuvchining shahsiy kabineti - interaktiv davlat xizmatlari olishda davlat organlari bilan o‘zaro munosabatlar uchun o‘zida foydalanuvchi

to'g'risidagi ma'lumotlar, shu jumladan shahsiy ma'lumotlar, mavjud bo'lgan yagona portladagi elektron resursdir.

Yagona portalning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- foydalanuvchilarga davlat organlariga to'g'ridan-to'g'ri murojaat qilish uchun imkoniyat berish;
- foydalanuvchilarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi boshqa loyihalar bilan integratsiyalash;
- foydalanuvchilarning davlat organlari bilan o'zaro hamkorligi samaradorligini oshirish;
- davlat organlariga murojaat qilinganda foydalanuvchilar uchun byurokratik to'siqlarni qisqartirish va ularni bartaraf etish;
- "Elektron hukumat"ni yanada rivojlantirish va davlat boshqaruviga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishda ko'maklashish.

Hozirgi vaqtda, hukumatimiz tamonidan interaktiv xizmatlarni shakllantirish, tashkil etish va ularni boshqarishga katta e'tibor berilmoqda. Interaktiv xizmatlarni tashkil etishning eng tez va yahshi yo'li, bu, ularni internet tarmoqlari orqali amalga oshirish hisoblanadi.

Internet tarmog'i orqali ko'rsatiladigan interaktiv xizmat ko'rsatuvchi dasturiy vositalar mavjud ularga www.orexca.com, www.desk.uz, uza.uz, gov.uz, www.myjob.uz, www.vakansi.uz saytlar kirs a o'quv-uslubiy interaktiv xizmat ko'rsatuvchi dasturiy vositalarga inter-vuz.tuit.uz, talant.atdt.uz, estudy.uz, my.estudy.uz veb saytlari kiradi.

Manashu interaktiv xizmat ko'rsatuvchi dasturiy vositalarning avzalliklari haqida qisqacha ma'lumot beradigan bo'lsak www.orexca.com saytining avzalligi shundan iboratki ushbu veb sayt sayyohlar uchun mo'ljallangan bo'lib, bunda interaktiv xizmatlar: tarixiy joylarga tashrif buyurish mehmonhonga oldin buyurtma berish imkoniyatlari ega bo'lish va xizmatlar bilan tanishishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasida faoliyatlari dorasida olib borilayotgan asosiy yangiliklar majmuasini uza.uz, gov.uz hamda www.desk.uz veb saytlari orqali

topish mumkin. Ushbu veb sahifalarda Davlat boshqaruv va ho‘jalik yurituvchi organlar veb sahifalari orqali ko‘rsatiladigan interaktiv xizmatlari, ular faoliyati haqidagi yangiliklar, xabarlar mavjud.

Respublika doirasida bo‘sh ish o‘rinlarini topish, aniqlash va muloqat o‘rnatish quyidagi veb sahifalar orqali amalga oshirilishi mumkin. www.myjob.uz, www.vakansi.uz bu saytlardan siz ish o‘rinlari haqidagi ma’lumotlarni va siz, o‘zingiz haqingizdagi ma’lumotlarni to‘ldirib jo‘natishingiz va javob olishingiz mumkin.

O‘quv-uslubiy interaktiv xizmat ko‘rsatuvchi dasturiy vositalardan biri inter-vuz.tuit.uz saytidir. Bu sayt oliy ta’lim muassasalarida axborot-ta’lim dinamik muhitida interaktiv xizmatlarni ko‘rsatish tizimi Veb texnologiyalar asosida yaratilib, Inter-VUZ nomi bilan internetda faoliyat ko‘rsatmoqda. Tizimning ishlash falsafasi pog‘onalilikga, ya’ni ichma-ich joylashgan qism tizimlar va vazifali modullarga asoslangan.

inter-vuz.tuit.uz saytining avzalligi shundan iboratki O‘zbekistonda mavjud bo‘lgan oily ta’lim muassalarida ta’lim tizimini boshqarishda yagona axborot –ta’lim muhitini yaratib berish va undagi axborotlar oqimini boshqarish hamda ularni o‘z egalariga vaqtida yetkazishdan iborat. inter-vuz.tuit.uz saytining yana bir avzalliklaridan biri bu avtomatlashtirilgan oily ta’lim muassasalarida interaktiv xizmat ko‘rsatishdan iborat.

talant.atdt.uz veb sayti ham o‘quv- uslubiy interaktiv xizmat ko‘rsatuvchi dasturiy vositalardan biri hisoblanadi. Bu sayt Toshkent axborot texnologiya universitetining iqtidorli talabalari bilan ishlash, ularning ilmiy-ijodiy ishlarga yo‘naltirishga va ularga interaktiv xizmatlar ko‘rsatishdan iboratdir. Bu saytda universitetining iqtidorli talabalari uchun zarur bo‘lgan barcha ma’lumotlar joylashtirilgan bo‘lib, u orqali talabalarga interaktiv xizmatlar ko‘rsatiladi. Shuningdek, mazkur sayt orqali iqtidorli talabalar ijodiy faoliyatini tashkil qilishga ko‘maklashish, ularni fan va texnika yangiliklaridan xabardor qilish, respublika va xalqaro miqyosda o‘tkaziladigan ilmiy anjumanlar, fan olimpidalari, seminarlar, tanlovlar, Davlat stipendiyalari, “Kamolot”

jamg'armasi, xorijiy jamg'armalar grantlari, nomdor stipendiyalar haqidagi ma'lumotlarni tezkor ravishda yetkazish ishlari virtual ravishda olib boriladi.

TATU talant.atdt.uz veb-sayti "Yangiliklar", "Ko'rik va tanlovlar", "Ilmiy anjumanlar", "Fan olimpiadalari", "Interaktiv test", "Axborot resurs markazi", "Virtual ta'lim tizimi", "O'z iqtidoringizni sinab ko'ring", "Iqtidorli talabalar", "Dunyodagi iqtidorli yoshlar haqida", "Kutubxona" va "Fotojamlanma" kabi ruknlardan iborat.

Har yili o'tkaziladigan "Ilmiy g'oyalar yarmarkasi"da iqtidorli talabalarining ilmiy tadqiqot ishlari natijalari namoyish etib boriladi va universitetda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar ko'lamini yanada kengaytirishga, olinayotgan ilmiy natijalarni ta'lim va ishlab chiqarishga keng joriy qilishga yo'naltirilmoqda. Bu yo'nalishda talant.atdt.uz veb-sayti Toshkent axborot texnologiyalari universitetining iqtidorli talabalari bilan ishlash, ularning ilmiy-ijodiy ishlarga yo'naltirish va ularga interaktiv xizmatlar ko'rsatishda tabora o'z o'rnini topib bormoqda.

O'quv-uslubiy interaktiv xizmat ko'rsatuvchi my.study veb sayti masofali ta'lim tizimidir u akademik litsey va kolledj o'quvchilari, oliy ta'lim muassasi talabalariga masofadan ta'lim berish uchun yaratilgan tizimdir. Bu saytning avzalliklar juda ko'p bo'lib, asosiy avzalliklardan biri fizika va matematika fanlar bo'yicha mu'ltimediya ma'ruzalar, vedio darsliklar va flesh animatsion roliklardan foydalangan holda dars jarayoni tashkillashtirilganligidadir.

I Bob bo'yicha xulosa

Ushbu bobda quyidagi ma'lumotlar berilgan: Interaktiv xizmat tushunchasi va internet tarmog'i orqali ko'rsatiladigan interaktiv xizmat ko'rsatuvchi dasturiy vositalar sharhi va hukumatimiz tomonidan interaktiv xizmatlarni shakllantirish, tashkil etish va ularni boshqarishga katta e'tibori haqida. O'zbekistonda o'quv-uslubiy interaktiv xizmat ko'rsatuvchi dasturiy vositalarni ro'li va o'quv-uslubiy interaktiv xizmat ko'rsatuvchi dasturiy vositalarning avzalliklari haqida ma'lumotlar joylashtirilgan.

II BOB. IQTIDORLI TALABALARGA MO'ljALLANGAN O'QUV-USLUBIY INTERAKTIV XIZMAT KO'RSATUVCHI DASTURIY TA'MINOTLARNI LOYIHALASHTIRISH VA ISHLAB CHIQISH ASOSLARI

1. O'quv-uslubiy interaktiv xizmat ko'rsatuvchi dasturiy ta'minotlarni loyihalash va yaratish asoslari

O'quv- uslubiy interaktiv xizmat ko'rsatuvchi dasturiy vositalarni yaratish internet muxiti orqali amalga oshiruvchi dasturiy ta'minot yaratish uchun elektron ma'lumotlar bazasidan foydalanish zarur bo'ladi. Kompyuter tarmoqlari uchun yaratilgan dasturiy ta'minotlarni asosan ko'pchiligi Veb-sahifa ko'rinishida tashkil etilib, ularda foydalanuvchi interfeysi Veb ko'rinishida amalga oshiriladi.

Iqtisodiyotni globallashtirish sharoitida informatsion madad istagan darajadagi tashkiliy xo'jalik faoliyatining unumli rivojlanishiga, axolining axborotlashitirilganligi va farovonligini o'sishiga va odamlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni yahshilanishiga ko'maklashuvchi muhim elementlardan biriga aylanib bormoqda. Bunday yutuqlar keng ko'lamli WWW tarmog'i va unga joylashgan Veb-saytlarning doimo ishlab turishi evaziga erishiladi. Shuning uchun hozirgi vaqtda har bir tashkilot yoki har bir shaxs, qayerda ishlashidan qat'iy nazar, Internetda o'z joyini yaratish zarurligini tushunmoqda. Chunki bu usul natijasida butun dunyoga o'zi to'g'risida, o'zining ish faoliyati to'g'risida gapirish va internetning bepoyon resurslaridan o'z maqsadi yo'lida foydalanish imkoniyatlari paydo bo'ladi. Axborotni Internetda joylash va uni ekranda aks ettirish uchun qulay bo'lgan ko'rinishda, ya'ni Veb - sahifa ko'rinishida taqdim etish zarur, chunki bu sahifada joylashtirishni xoxlagan foydalanuvchi axboroti har tomonlama bo'lishi va u ko'p xollarda Veb-saytda joylashishi mumkin.

Aql bilan yaratilgan sayt, qoida bo'yicha, informatsion yagona bus-butun hisoblanadi va joylanajak axborot mohiyatiga qarab alohida kriteriya va standartlarga ega bo'ladi, va ko'plab tashkilot va muassasalar, xususi

foydalanuvchilar uchun o'zlarining tashkilot va shahsiy ish faoliyatlarida Veb - texnologiyani va uning elementlarini tadbiq etish bo'yicha ko'plab har hil eng muhim muammolarga duch kelinadi. Bu Veb-saytlar Internet serverlarida joylashguncha va nashr qilinguncha Veb - texnologiya va dizayn asoslaridan yuqori va chuqur bilim talab qiluvchi, ko'pqirrali va professional - intellektual ishdir. Va bu muammolar zamonaviy Veb - texnologiyalar bo'yicha mutahassislar yetarlicha bo'lgandagina yechiladi. Shuning uchun Veb - sahifa yaratish va uni o'rganish jarayoni, shu berilgan yo'nalish bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash hozirgi kun uchun juda muhim va dolzarb hisoblanadi. Bu mutahassislik kuchli va kelajagi porloq kasb, u hozir ham, kelajakda ham hamisha, o'z o'rniga ega bo'ladi.

Boshqa tomondan Veb-saytlarni yaratish va o'rganish muammosining dolzarbligi va muhimligini quyidagi sabablar bilan asoslash mumkin:

- Taqdim qilinayotgan Internet servis xizmatlari muxitini ko'p miqdorda kengayishi va ulardan foydalanishning osonligi bilan;
- Tarmoq Veb - texnologiya, ularning resurslari va imkoniyatlarini hamma joyda tarqatish bilan;
- Istagan darajali axborotlarga bo'layotgan talabalarning o'sib borishi bilan;
- Tashkilot va hususiy shaxslarning o'zlari va o'z ish faoliyatlari to'g'risidagi axborotlarni internetda joylash uchun intilishlarning o'sishi bilan;
- Tarmoq ma'lumotlar bazasidagi global mashtabdagi har hil maqsaddagi axborotlarga e'tibor qaratish bilan;
- Har hil mamlakat, millat va fan odamlarining o'zaro muloqat va tushunishlarga bo'lgan intilishi bilan;

Veb saytlarni loyihalashtirish va ishlab chiqish bosqichlari

1-bosqich. Iste'molchilar avditoriyasi. Har bir Veb-sayt asosan tashrif buyuruvchilar - mijozlar uchun yaratiladi. Birinchi navbatda, siz ko'z oldingizga

aniq keltirishingiz zarur, ya'ni kim uchun bu ishni qilyapsiz va odamlar siz yaratgan dasturiy ta'minotdan foydalanadimi?

Foydalanuvchilar respublika tashqarisidagi axborotlarni qidirish maqsadida Internetga kirish uchun xaq to'laydilar. Shunday qilib eng ko'p tashrif buyuruvchi Veb-saytlarga rusiy-zabon (Rossiya, Ukraina, Qozog'iston, Isroil) va ingliz-zabon iste'molchilar, ya'ni eksport - import operasialari, turizm, transport bilan shug'ullanadigan kompaniyalar kiradi. Lekin keyingi paytda O'zbekiston ma'lum mavzuga, sohaga yo'naltirilgan ko'plab Veb-saytlar paydo bo'lmoqda. Tabiiyki, ulardan faqatgina internetda real holatdagi avditoriyalarga mo'ljallanganlari tashrif buyuradilar.

2-bosqich. Raqobatchilar. Siz ochmoqchi bo'lgan mavzu bo'yicha bir-biriga o'xshash Veb-saytlar analizi, ko'pincha Veb-sayt konsepsiyasini yaratish asosiga aylanib qolmoqda. Siz yaratayotgan Veb-saytning tashqi ko'rinishi raqobatchi Veb-sayt tashqi ko'rinishiga o'xshab qolmasligi kerak. Sayt - raqobatchilarning navigatsiya va strukturasining kuchli va kuchsiz tomonlarining analizi ularning tajribasini o'z maqsadlarimizda foydalanish mumkinligini ko'rsatdi. Tashrif buyuruvchilarning Veb-saytlarga bo'lgan qiziqishini oshirishda servislar hizmati beqiyosdir. Veb-saytlarga tashrif buyuruvchilar sonini oshirish uchun yangi servislarni o'ylab topish hamisha mumkindir. Raqobatchilar foydalanadigan internetdagi Veb-sayt harakat qilish (ommalashtirish) usuliga ham e'tibor qaratish zarur. Internetning zamonaviy rivojlanish bosqichida ixtiyoriy mavzuli Veb-saytlar xoxishlariga qarab internet - uyushmalariga birlashadilar. Shu kabi maxsuslashgan yangilik va obzor - analitik Veb-saytlar, zaxira kataloglari, forumlar bunyod bo'ladi. Ular yetarli miqdordagi mavzuli Veb-saytlar zahirida yuzaga keladilar. Shunday virtual mavzuli uyushma muxitida Veb-saytingiz pozitsiyasini kuchaytiruvchi aniq strategiyani tadqiq etish zarurdir. Veb-sayt tashqi qismini buyurtmachilar kabi Veb-sayt tashrif buyuruvchilari uchun ham tayyorlash muxim hisoblanadi. Faqat shu xolatdagina uning ommalashuviga mo'ljall qilish mumkin.

3-bosqich. Byudjet. Uning tarkibi quyidagicha:

- Veb-saytni yaratish masalalari bo'yicha mutaxassislar bilan oldindan maslahat o'tkazish;
- Veb-sayt kosepsiyasini tadqiq qilish va Veb-saytning dinamik qismi uchun masalani kundalang qo'yish;
- Veb-saytni ishlab chiqish (tadqiq etish).
- Veb-sayt dizaynini tadqiq etish;
- Veb-sayt dasturiy qismini tadqiq etish;
- 4-bosqich. Domen nomlarni ro'yhat qilish;
- 5-bosqich. Veb-saytni quvvatlash va tashrif buyuruvchilar bilan teskari aloqa ishlari bo'yicha buyurtmachi shaxsni o'qitish;
- 6-bosqich. Saytni qo'llab-quvvatlash;
- Veb-saytni joylashtirish (xosting)
- Domen nomlarni quvvatlash;
- Veb-saytning texnik kuzatuvi;
- Veb-saytning informatsion kuzatuvi (ko'pincha buyurtmachi tomonidan bajariladi, lekin boshqacha holatlar ham bo'lishi mumkin).
- Internetda saytni harakat ettirishning an'anaviy usullari.

Baxtga qarshi Veb-saytning ko'plab o'zbekistonlik buyurtmachilari uning internetdagi xarakati uchun sarf - harajatlar rejalashtirmay, tekin servislar - qidiruv serverlaridan registratsiya (qayd qilish)ga mo'ljal qiladilar.

Internetning rusiy-zabon sektorlarida Veb-saytni harakat ettirish uchun ko'plab reklama agentliklari mavjud. Internetning O'zbekistondagi sektorida faqat bitta maxsuslashgan reklama agentligi Brand.uz ishlab turibdi (<http://WWW.brand.uz>). Bu agentlik uzining boshlangich rivojlanish bosqichida bo'lib, bir nechta yirik veb - dizayn studiyasiga ega.

Biznes - jarayon. Veb-saytni yaratish zarurligi to'g'risidagi qarorni qabul qilish uchun kompaniyangizdagi kanday biznes - jarayonlar uchun bu Veb-saytni tadqiq etish mumkinligini aniqlab olish kerak bo'ladi.

Bugun quyidagi tijorat Veb-saytlari mavjud:

1. Reklama sayti - ixtiyoriy reklama singari internet informatsion muhitidagi konkret maxsulot va xizmat yoki brendni reklama qilish uchun xizmat qiladi. Katta miqdordagi grafik element va multimedia vositalari (Flash) sahifalarida qo'llanilishi bilan farqlanadi.
2. Informatsion sayt - mijozlarning virtual uyushmasini tuzish to'g'risidagi qarorni qabul qilishda "informatsion to'siq" ni olib tashlash uchun tashrif buyuruvchilarni maxsulot va xizmat turlari to'g'risidagi ma'lumotlar bilan to'la-to'kis bohabar etish uchun xizmat qiladi. Sahifalar tashqi ko'rinishining ko'rkamligi (ihchamligi) bilan ajratib turadi, chunki bu Veb-saytdagi barcha elementlar kerakligi axborotlarni tez va qulay usulda qidirib topish uchun xizmat qiladi.
3. Biznes sayt - kompaniyaning alohida tashqi biznes - jarayonlarni tashkil qilish uchun xizmat qiladi (masalan, ta'minotchi va dillerlarning ombordagi maxsulotlar, maxsulot yoki xizmatlarga ega bo'lishdagi buyurtmalar, xizmatchi va dillerlarni o'qitish, suxbatlar olib borish jarayonlari to'g'risida). Biznes - jarayonlarni tashkil etish uchun dasturiy modullar (Internet - ilova) mavjudligi bilan farqlanadi.
4. Korporativ portal - kompaniya ichki va tashqi biznes - jarayonlarining servislarini o'z ichiga oladi. Bundan tashqari korporativ portal tarkibiga kompaniyaning har hil bo'limlari o'rtasida axborot almashuvi, bug'alteriya ilovalari, ombor, kadrlar bo'limi, statistik va analitik axborotlar, spravochnik, uquv axborotlari, ta'minotlar, dillerlar, iste'molchilar bilan ishlash uchun avtomatlashtirilgan vositalar va boshqalar kiradi. Biznes-jarayonlarni tashkil etish uchun internet-ilova, kompaniya (bug'alteriya, ombor, rejalashtiruvchilar va b.k.) da foydalaniladigan amaliy dasturlarga kirish uchun interfeyslar mavjudligi bilan farqlanadi.

Veb-saytning paydo bo'lishi mavjud biznes-jarayonga ozmi ko'pmi o'zgarish kiritishni nazarda tutish kerak. Masalan, jamiyatchilik bilan aloqa bog'lash bo'lishida yangiliklarni o'z navbatida chop etish masalasi, marketing bo'limida Veb-saytni siljitish ishlari, Veb-sayt davomati statistikasining analizi,

on-layn da savol-javoblar va reklama aksiyalarini o'tkazish. Maxsulotlar bozori bo'limi on-layn mijozlari bilan ishlashni, kadrlar bo'limi esa Veb-interfeys orqali vakant joylarga nomzodlarni tanlashni o'rganishi kerak.

Ko'pincha internet – texnologiyadan foydalanish kommunikatsiya bilan bog'liq vositalar (axborotlarni tarqatish va qabul qilib olish, gaplashish tarmoqlari) ni ancha iqtisod qilishga olib keladi. Bu ishlar vaqtni iqtisod qilish, internet va boshqa axborotlarni uzatishdagi narxlar farqi evaziga sodir bo'ladi.

7-bosqich. Veb-sayt tadqiqotchisi. Sayt tadqiqotchisini tanlash saytingizda amalga oshirilgach masalaning murakkabligiga bog'liq bo'ladi. Hozir O'zbekistonda 100 dan ortiq kompaniyalar har hil murakkablikdagi Veb-saytlarni tayyorlash bo'yicha va 50 dan ortiq xususiy Veb - dizayn studiyalari uz xizmatlarini taklif qilmoqdalar. Ularning ko'pchiligi reklama va informatsion Veb-saytlar uchun yechimlar taklif qiladilar. Bunda sayt Veb - sahifalarining ko'pchiligi yo'l bilan varaqlanadi va ba'zida tekin yoki arzon narxda dasturiy yechimlar ishlatiladi.

Design. uz. Sarcor. Design, On - Style, ISP Nayter, Isp Payvaz va shu kabi kompaniyalar minimal avtomatizatsiya (informatsion lentalar, elektron vitrinalar, elektron translistlar, teskari bog'lanish) bilan biznes - saytlar uchun yechimlar taklif qiladilar. Bunda perl, php va SUBD (my SQL va b.k.) arzon dasturiy yechimlar ishlatiladi.

O'zbekistonda ishlayotgan Eurasia Technologies Group kompaniyasi Platinum Partners i Soft Osiyo EIP(Enterprise Informatsion Portal - korporativ informatsion portal) klassli yechimni taklif qiladi. Bu echim o'z ichiga biznes - saytlar va korporativ portallar (elektron savdomaydonchasi va birjalar, elektron tezkor maydonchalari va vakans kataloglari, foydalanuvchilar haq - huquqini boshqarish uchun qarorlar va b.k) uchun sozlanuvchi modullarni oladi. Eurasia Technologies Group tomonidan taklif qilayotgan texnologiya O'zbekistonda yakka hisoblanadi va analogi yuk (Java dasturlashtirish tili va SUBD Oracle Jif kullaniladi) va bizdagi Veb-saytlarni yaratish uchun ishlatiladigan barcha

mavjud yechimlardan ham a'lo hisoblanadi, chunki u elektron biznes uchun ancha yuqori klassli echimlar qatoriga kiradi.

Tadqiqotchini tanlashda uning Veb- saytni ishlab chiqish, uni joylashtirish (xosting) va kuzatish, konsultasion va marketing xizmatlaridan iborat kompleks yechimlarni taklif qilinishini hisobga olish kerak., chunki faqatgina kompleks yechimlar buyurtmachini loyixani amalga oshirishda har hil “texnik” noqulayliklardan asraydi.

8-bosqich. Veb-saytni joylashtirish (xosting). Xostingni tanlashda Internet provayder imkoniyatini, ya'ni kanalning o'tkazish qobiliyatini inobatga olish kerak bo'ladi. Bir vaqtda qancha tashrif buyuruchilar Veb-saytga kira olishi mana shu ko'rsatgichga bog'lik bo'ladi. Provayder kanali har hil mamlakat va mintaqadagi foydalanuvchilarga bir hil yaxshi va qulay bo'lishi kerak. Xosting sifatiga ta'sir etuvchi boshqa parametr - bu Veb - server unumdorligi hisoblanadi. Xosting vakoloti sanalgan kompaniya bilan saytning ommaviyligi (tashrif buyuruchilar soni) oshgan taqdirda kanalning o'tkazish qobiliyati va Veb - server unumdorligini mos ravishda oshirish to'g'risida kelishib olish kerak bo'ladi.

9-bosqich Qo'llab-quvvatlash va harakat.Veb-sayt tadqiq qilinguncha Veb-saytni quvvatlab turish va uning siljishi bilan kim va qanday qilib mashg'ul bo'lishini aniqlash muxim faktordir.

Veb-sayt informatsion to'laligini yangilab turishni tashkil etishning ikki usuli mavjud:

- O'zgarish Veb-sayt tadqiqotchi kompaniya xizmatchilari tomonidan kiritiladi;
- O'zgarish Veb-sayt buyurtmachi kompaniya xizmatlari tomonidan kiritiladi.

Birinchi usul tadqiqotchi kompaniyadagi Veb-saytni quvvatlab turuvchi maxsus xizmatni tashkil etishni talab qiladi.

Ikkinchi usul buyurtmachi kompaniyadan o'zining xizmatlari uchun mahsus elektron ishchi joylarni yaratishda vositalar qo'shishni talab qiladi.

Mana shunday elektron ishchi joylar yordamida buyurtmachi kompaniya xizmatlari mustaqil ravishda Veb-sayt informatsion to'raligini quvvatlab turadilar. Buyurtmachi kompaniya xizmatchilaridan internet - texnologiyasi bo'yicha maxsus bilimlar talab qilinmasligi (brauzer bilan foydalanishdan tashqari) maksadida elektron - ishchi joylarining masofaviy foydalanish interfeysidan maksimal ravishda foydalaniladi.

Veb-sayt yaxshi ishlab turishida eng asosiy elementlardan biri bu axborot tashuvchilari bilan teskari bog'lanishni to'g'ri tashkil qilinganligidir. Uni shunday tashkil etish kerakki, Veb-sayt tashuvchilari bilan doimo dialog olib borishi mumkin bo'lsin. Bunday imkoniyat yuzaga keladi, agar tashrif buyuruvchilar va kompaniya xizmatchilari tomonidan bo'ladigan har hil xabarlarga shu zahotiyuq reaksiya qurish uchun qulay va tushinarli interfeys tashkil qilinsa.

Veb-sayt ni quvvatlash jarayoniga uning doimiy harakati (siljishi) ham kiradi. Veb-saytga tashrif buyuruvchilar doimiy kelib turishini quvvatlab turish maqsadida olib borilgan ba'zi bir tadbirlar:

- Qidiruv serverlari va undagi indekslar joylashuvini nazorat qilish uchun Veb-sayt sahifalarini optimizasiyalash;
- Banner tarmoqlaridagi banner va matnli bloklardan foydalanib reklama aksiyalarini o'tkazish va rejalashtirish;
- To'g'ri almashuv yoki reklamalarni eng gavjum joydagi mavzuli zahiralarda o'rnatish;
- Mavzuli pochta jo'natmalaridagi reklama;
- To'g'ri pochta jo'natmalari;
- Veb-sayt ichki reklamasi yordamida har hil Veb-sayt savollar reklamasi;
- An'anaviy usullar reklamasi.

Veb-saytning siljishi (harakati) bo'yicha doimiy olib berilgan ishlar sezilarli natijalarni berishi mumkin.

Yuqordagi ma'lumotalardan foydalanilgan holda talant.atdt.uz sayti yaratildi.

2.Iqtidorli talabalarga mo'ljallangan o'quv-uslubiy interaktiv xizmat ko'rsatuvchi dasturiy ta'minotning tarkibiy tuzilmasi

Iqtidorli talabalarga mo'ljallangan o'quv-uslubiy interaktiv xizmat ko'rsatuvchi dasturiy vositaning tuzilishi va uning o'ziga hos xususiyatlari, ayrim muammolarini ko'rib chiqamiz.

Iqtidorli talabalarga mo'ljallangan o'quv-uslubiy interaktiv xizmat ko'rsatuvchi talant.atdt.uz sayti yaratildi. talant.atdt.uz veb-sayti informatsion sayt hisoblanib. Informatsion sayt bu mijozlarning virtual uyushmasini tuzish to'g'risidagi qarorni qabul qilishda "informatsion to'siq" ni olib tashlash uchun tashrif buyuruvchilarni maxsulot va xizmat turlari to'g'risidagi ma'lumotlar bilan to'la-to'kis bohabar etish uchun xizmat qiladi. Sahifalar tashqi ko'rinishining ko'rkamligi (ixchamligi) bilan ajratib turadi, chunki bu Veb - saytdagi barcha elementlar kerakligi axborotlarni tez va qulay usulda qidirib topish uchun xizmat qiladi.Veb saytning normal ishlashi uchun foydalanuvchilar bilan teskari bog'lanish zarur. Ularga veb saytda yetarlicha kanfort bo'lishi kerak. Buning uchun har hil informatsion quvvatlab turish vositalarini tadbqiq etish talab etiladi. talant.atdt.uz veb saytini navigatsion modeli informatsion ierarxik struktura asosida quriladi va veb saytning barcha zarur sahifalari ta'riflarini va navigasiya elementlarni o'z ichiga oladi.

Birinchi navbatda saytning bosh menyusi va servislar menyusini aniqlash zarur. Veb-sayt bosh menyusiga bosh sahifa (main page, homepage) dagi giperbog'lanish (ssilka) va saytning asosiy informatsion bo'limlari kiradi. Ya'ni veb saytning informatsion to'ldiruvchilariga tegishli bo'limlar. Bunaqa bo'limlar soni uchdan oltigacha bo'lishi kerak, aks holda sayt bo'yicha navigatsiyani amalga oshirish qiyinlashadi. Agar informatsion bo'limlar soni ko'p bo'lsa mavzu yoki foydalanuvchilar guruhlar bo'yicha o'hshash bo'limlarni birlashtirish mumkin. Bosh menyuni tuzishda asosiy e'tiborni har hil kategoriyadagi foydalanuvchilar uchun qulaylik yaratishga qaratish kerak,har hil murakkablikdagi axborotlarga (boshlovchi va ekspertlar), birinchi marta tashrif buyuruvchilarga va doimiy tashrif buyuruvchilarga.

Servislar menyusiga veb saytning informatsion to'ldiruvchilariga tegishli bo'lmagan bo'limlar kiradi. Lekin, ular yordamchi servislar hisoblanadi. Masalan, sayt bo'yicha, sayt kartasi, umumiy savollar bo'yicha kontaktli ma'lumotlar; umumiy savollar bo'yicha teskari bog'lanish formasi va boshqalar. Bunday servislar har bir tashrif buyuruvchi va har bir veb sayt sahifasida doim saqlanish kerak.

Bosh menyu va servislar menyusini aniqlab bo'lingach, Veb - sayt bo'limlarining ichki strukturasi va navigatsiyalarini analiz qilish zarur.

Veb - navigatsiyaning 4 hili mavjud

Yassi - barcha sahifalar umumiy giperbog'lanishga ega. Bunda bir sahifadan boshqa ihtiyoriy sahifaga o'tish mumkin. Sayt sahifalarini yuqori darajasini yoki yirik sayt bo'limlarini kurishda ishlatiladi.

Ketma-ket - har bir sahifa oldingi va keyingi sahifalar uchun giperbog'lanishga ega. Asosan, sahifalarni ketma-ket ko'rib chiqish talab etiladigan ko'p sahifali chop etishlarda ishlatiladi

Iyerarxik - barcha ketma-ket keladigan sahifalar faqat bosh sahifa bilan giperbog'lanadi, lekin bir biri bilan kesishmaydi. Murakkab menyularni ko'rishda elektron kataloglarda ishlatiladi.

Aralash - oldingi uch hil navigatsiyaning har hil variantlarida uchraydi.

Navigatsiyaning barcha hillaridan foydalangan holda veb sayt bo'yicha navigatsiya uchun qo'shilishning maksimal darajasi 4-5 daraja bo'lgan ma'qul.

Demak, ideal holatda tashrif buyuruvchi saytning har bir sahifasini sichqonchani 3-4 ta chiqillatish mobaynida ko'rish mumkin.

Sayt bo'limlari strukturasi qurishda yahshi anglash uchun uning tiniqligiga e'tibor berish kerak.

Veb-saytni qurish jarayonida uning informatsion to'ldirilishi - kontent (content - ichidagi bor narsalar) ga alohida e'tibor berish zarurdir. Veb - saytning informatsion va navigatsion strukturalari aniqlangach, sayt alohida sahifalarni konkret ravishda informatsion to'ldirilishi va uning ketma-ketligini aniqlashga kirishish zarur bo'ladi.

Buning uchun informatsion to'ldirish uchun mas'ul hisoblangan odam bilan birgalikda veb saytning har bir sahifasida qanaqa axborotlar (matn, tasvir, animatsiya va b.k.) joylashganligini aniqlanadi. Barcha olingan ma'lumotlar har bir masala qarshisida bajaruvchi va bajarish muddati ko'rsatiladigan jadvalga o'tkazilishi shart.

Bundan tashqari Veb - dizayner bilan birga veb saytning turli bo'limlarida ishlatish mumkin bo'lgan sahifalar shablonlariga belgi qo'yish va ularning miqdorini aniqlash zarur bo'ladi. Masalan, "Bosh sahifa", "Bo'lim bosh sahifasi", "Bir sahifali maqola", "Ko'p sahifali maqola" va boshqalar.

Shunday qilib, veb saytni amalga oshirish uchun quyidagilar mavjud.

- Maqsadli foydalanuvchilar aniqlanadi;
- Informatsion struktura aniqlanadi;
- Navigatsion model tadqiq qilinadi;
- Informatsion to'ldirishning hajmi aniqlanadi;

Sahifa shablonlari xususiyati va miqdori aniqlanadi.

Bu bosqichda veb sayt uchun masalaning ko'ndalang qo'yilishi tugallanadi. Lekin dinamik veb sayt uchun uning funksionalligini aniqlash, ya'ni veb sayt dasturiy qismining zarur funksiyalarini ro'yhat qilish, "texnik topshiriqlar" ni tuzish qoladi.

Misol:

- Funksional nomi: veb sayt tashrif buyuruvchilari bilan teskari bog'lanish.
- Ahamiyati.: veb sayt tashrif buyuruvchilaridan informatsion xabarlarni veb sayt administratori tomonidan yig'ib olish.
- Tashrif buyuruvchilar funksiyasi: majburiy polya (joy) hisoblanadigan "Ism", "Kontaktli e-mail" va "Xabar" larni o'z ichiga olgan xabarlar formalarini to'ldirish va jo'natish;

Xabarlarni muvaffaqiyatli jo'natilgach, habarlarni muvaffaqiyatli jo'natilganligi to'g'risidagi xabarni olish;

Xabarni muvaffaqiyatsiz jo'natilgach, muvaffaqiyatsiz jo'natilgan xabar to'g'risidagi xabarni (formani takroriy to'ldirish taklifnomasi bilan) olish;

To'ldirilgan polya (joy) li formalarni jo'natishga harakat qilishda – to'ldirish shart bo'lgan polyalarni to'ldirilmaganligi to'g'risidagi xabarni olish.

Veb - sayt administratori vazifa (funksiya) lari

1. Teskari bog'lanish formalarini yaratish, tahrirlash;

Veb - interfeys orqali xabarlarni ko'rib chiqish, ya'ni xabarlarni kelib tushish vaqtiga qarab filtrlash; e-mail ning xabarlarda ko'rsatilgan kontaktli adresi bo'yicha javobiy xabarlarni jo'natish va xabarlarni yo'qotish;

Administratorning e-mail adresiga xabarlarni jo'natish, shu bilan birga unga xabarlarni jo'natish uchun e-mail ni o'zgartirish imkoniyati borligi.

3.Iqtidorli talabalarga o‘quv - uslubiy interaktiv xizmat ko‘rsatuvchi dasturiy ta‘minotlarni yaratish texnologiyalari

Hozirgi kunda axborot texnologiyalari, hamda internet va Veb - texnologiyalari xalq ho‘jaligining, umuman insoniyat faoliyatining barcha sohalariga jadallik bilan kirib kelmoqda. Shuningdek internet tarmog‘idagi World-Wide Web (WWW) xizmatining mashhurligi uni ma‘lumotlar tarqatishning asosiy vositasiga aylantirib qo‘ydi. Bugungi kunda yaratilayotgan ta‘lim vositalariga nazar soladigan bo‘lsak ularning juda ko‘pchilig Veb texnologiyalarga asoslanganligi ularning bevosita internet tarmog‘ida ishlatilayotganligiga guvoh bo‘lishimiz mumkin.

World Wide Web texnologiyasi tarjima qilinganda "dunyo o‘rgimchak to‘ri" ma‘nosini bildirib, bu texnologiya o‘zining foydalanuvchi interfeysi soddaligi tufayli keng qo‘llanila boshlandi.

World Wide Web (WWW) - butun dunyo o‘rgimchak to‘ri - Internetning eng ommaviy axborot xizmatlaridan biri hisoblanadi. Internet uzoq, vaqtlar mobaynida turli hil kompyuter tarmoqlarining chigal tizimi bo‘lib, ular bo‘yicha asosan elektron axborot uzatilgan. Kompyuter buyruq va dasturlarini ishlatishning nozik tomonlarini boshidan kechirmagan yangi odam bu chigal tizimda o‘zini ishonchsiz va bug‘iq his qiladi. Oddiy va ko‘rgazmali shaklda, «ko‘rsat - bos» tamoyili bo‘yicha yaratilgan yangi texnologiya foydalanuvchiga tarmoqqa punktlari so‘rovlarini aniq berish va unga kerak bo‘lgan ayni narsani tanlashni o‘rgatdi. Bu texnologiya World Wide Web dasturi bilan amalga oshiriladi.

Ko‘pchilik foydalanuvchilarning haqiqiy vaqt oralig‘ida ma‘lumotlarni uzatish vositalariga faol qiziqishi aynan shu texnologiyani paydo bo‘lishi bilan kelib chiqdi qisqa vaqt ichida WWW Internetni axborot supermagistraliga yoki «dunyo axborot o‘rgimchak to‘riga» aylantirdi.

World Wide Web -internetning eng yahshi xizmatlaridan bo‘lib, matn, grafik, axborot, tovushli fragmentlarnidan tashkil topgan hujjatlar bilan ishlash

imkoniyatini yaratib beradi. WWW tizimi internet tarmog'ining istalgan qismida joylashgan serverdagi hujjatni topib, foydalanuvchi kompyuteriga chaqirib berishni ta'minlaydi. WWW ning muhim xossalardan biri - hujjatlarga gipersilka kiritilishi mumkinligidir. WWW millionlab odamlarga bir birlari bilan to'g'ridan-to'g'ri murojat qilish rejimida muloqat qilishga imkon beradigan yangi va nisbatan arzon texnologiyadir. Tarmoq bo'yicha faqat matnli fayllargina emas, balki tovush, grafika va videotasvirlar ham muvaffaqiyatli uzatila boshlandi. Kompyuterdagi ma'lumotlar bazasiga va tijorat tarmoqlariga ega bo'lgan internetda cheksiz iste'mol bozorini va ishbilarmonlik ma'lumotlarini tarqatish uchun asosiy kanalni qurdilar, bular ularga tarmoqning virtual kengligida punktlari biznesini samarali qilish imkonini beradi.

WWW texnologiyasida ko'rilayotgan hujjatlardagi kalit tushunchalar: so'zlar, tasvirlar - ushbu tushunchani kengroq yoritib beruvchi yangi hujjat tarzida "ochilish" imkoniyatiga ega. Ma'lumotlarni bunday tarzda tasvirlash usuli "gipretekst", bunday shaklda tasvirlagan hujjatlar "gipertekstli hujjat" deb ataladi. Bu hujjatlarni yaratish uchun mahsus til - gipertekstlarni yozish tili yoki HTML (inglizcha varianti HyperText Markup Language) tili deb ataladi .

Bunday imkoniyat mavjudligi to'plangan ma'lumotlarni gipertekstli WWW hujjatlarga o'zgartirish masalasini, boshqacha aytganda mavjud ma'lumotlar bazasiga WWW murojaatni yaratish masalasini keltirib chiqaradi. Biror axborot resurslariga WWW texnologiyasidan foydalanib murojaatni ta'minlash uchun quyidagi komponentlari mavjud bo'lishi lozim :

1. IP - protokoli.
2. Veb server - WWW-serveri. Bu server WWW - mijozlarning so'rovlariga IP - protokoli orqali gipertekstli hujjatlarni havola etishni ta'minlaydi.

Havola etiladigan gipertekstli hujjatlar HTML tilida mavjud bo'ladi. Bu hujjatlar yoki statik shaklda (diskdagi fayllar tarzida), yoki foydalanuvchining so'rovi parametrlariga mos holda mahsus dasturiy ta'minot yordamida dinamik holda yaratiladi. WWW - server HTML - hujjatlarni dinamik holda yaratish uchun mahsus dastur - Veb texnologiya - dasturlardan foydalaniladi .

Ma'lumotlar bazasiga WWW - murojaat 3 ta asosiy usullardan biri yordamida amalga oshiriladi. Bu usullardan birida gipertekstli hujjatlar MB asosida dinamik tarzda yaratiladi. Bu usulda MB ga murojaat WWW - mijoz so'roviga javob sifatida WWW - server tomonidan ishga tushiriladigan VEB - dastur yordamida amalga oshiriladi HTML - hujjatni yaratadi.

Ko'pgina korxona, tashkilotlar va firmalar o'zlarini ish jarayonlarini qo'llab-quvvatlash uchun elektron ma'lumotlar bazalaridan foydalanadilar. Bu sistemalar ba'zan ikki foydalanuvchi o'rtasida, ma'lumotlar bazalari Clipper, Dbase, FoxPro, Paradox, Access faylaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Odatda ular bir-birlaridan mustaqil ravishda qo'llaniladi. Agar ma'lumotlar bunday ma'lumotlar bazalarida qaralsa, mutaxassislardan tashqari foydalanuvchilarni qiziqтира, ma'lumotlar bazasini tarqatish uchun ma'lumotlar bazasini boshqarish sistemalari orqali yaratilgan qog'ozli hisobot va ma'lumotnomalar qo'llaniladi.

Lokal tarmoqlarni paydo bo'lishi va ularni takomillashishi natijasida, ularni global tarmoq (Internet) ga bog'lanishiga olib keldi. Internet tarmog'ini vujudga kelishi natijasida, ixtiyoriy korxona, tashkilotlar va boshqa muassasalarga ma'lumotlar resurslariga bog'lanish uchun yo'l ochildi. Ma'lumotlar bazasini bilan ishlaganda bir turdagi ish joylarida bir xil ma'lumotlar bazasidan foydalanishga tog'ri keladi, lekin muammo shundaki ular o'rtasidagi muloqot tarmog'ini yaratilmaganligidadir. Shuning uchun ham bu ish o'rinlarini muloqotini ta'minlash uchun WWW texnologiyasi qo'llaniladi.

World Wide Web texnologiyasi o'zining foydalanuvchi muloqoti oddiy bo'lgan shunday osonlikcha keng tarqaldiki. Gipertekst asosida yotuvchi "nima qiziq bo'lsa shuni bos" prinsipi intuitiv tushunarlidir. WWW texnologiyalarida qurilayotgan hujjatning hamma kalit tushunchalari: so'zlar, rasmlar yangi hujjatlarni ochish imkoniga o'zgaradi, bu hujjatlar asosida kalit tushunchalarga kengroq ta'riflari va mazmun mohiyatlari keltirilgan. WWW texnologiyasidagi giper matnli hujjatlardagi mavjud bo'lgan ma'lumotlarni o'zgartirish masalalari yuzaga keladi, ya'ni o'zgartirilgan strukturalarni cheksiz qo'llash masalasidir.


Boshqacha aytganda mavjud bo'lgan ma'lumotlar bazasini WWW ga tadbiq qilish masalasi.

Ma'lumotlar bazalari insoniyat bilimlari asosini o'z ichiga oladi. XX asr oxiriga kelib ma'lumotlar bazasi texnologiyalari paydo bo'ldi va biz kelajakdagi tarix uchun judayam katta ma'lumotlar yig'ishga ega bo'ldik. Hamma gap shundaki ma'lumotlar bazasiga bo'lgan yo'l ham cheklangandir. Foydalanuvchi o'zini qiziqtirgan ma'lumotlarni olishi uchun SUBD ga mos bo'lgan fizik yo'lga ega bo'lishi kerak ya'ni u ma'lumotlar bazasi strukturalari va mavjud bo'lgan so'rov tillari qo'llashi kerak. So'rov tillari qandaydir muammolar paydo bo'lsa, bu muammolarni ODBC bayonnomasi hal qiladi, SQL operatorini cheklangan to'plami ixtiyoriy ma'lumotlar bazasi serveriga uzatishga imkoniyat yaratiladi. Ammo bu muammoni bir bo'laki bo'lib, foydalanuvchi ma'lumotlar bazasini strukturasini (hatto SQL terminlari orqali ham) tushuna olmaydi va bu keyingi foydalanuvchilarga bir xil interfeysni yaratishga yordam bermaydi.

WWW texnologiyasining ma'lumot resurslariga kirish uchun qo'llaniladigan komponentalar.

WWW texnologiyasini qandaydir ma'lumotlar resurslariga kirishni ta'minlash uchun qo'llashda navbatdagi komponentani mavjudligi bizga ma'lum bo'ladi (1.1-rasm):

IP- tarmog'i ma'lumotlar to'plamiga DNS ismli servis orqali ishlaydigan yagona qonuniyat bo'yicha nomerlangan va marshrutlangan ma'lumotni uzatish uchun xizmat ko'rsatadi.



1.1-rasm. IP-tarmog'i komponentalari.

Belgilangan ma'lumotlar serveri - WWW-server, gipermatnlarni hujjatlarni etkazib berish uchun (ya'ni www klientni so'roviga javob etkazish uchun) IP tarmog'i foydalanadi.


Uzatiladigan gipermatnli hujjatlar standart HTML (gipermatnlarni belgilash) tilida yozilgan bo'ladi. Bu hujjatlar statik ko'rinishda yoki dinamik ko'rinishda bo'lishi mumkin. Dinamik hujjatlardagi ma'lumotlar maxsus dastur ta'minotiga bog'liq ravishda komponovka qilinadi.

Konkret ma'lumotlar bazasi tarkibi asoslariga kirishda, ya'ni SUBD turi, jadvallar bog'lanishi, butunlik va yaxlitlik chegaralari va echim, ma'lumotlar bazalarini aktivligini qo'llash bilan bog'lanishni va ularga kirishni ta'minlaydi.

Mavjud ma'lumotlar bazasiga WWW-kirishni ta'minlashda, texnologik orasidagi tashkiliy quvvatlash texnologik va tashkiliy yechimlar komplekslari bir qancha yo'llari mavjud www texnologiyasini mavjud ma'lumotlar bazasiga kirishni amalda qo'llashda yechimlar judayam keng spektrini ko'rsatadi.

Mavjud ma'lumotlar bazasiga WWW-kirish ixtiyoriy bittasi uch xil senariyalar orqali amalga oshirilgan bo'lishi mumkin. Quyida ularni qisqacha tavsifi va asosiy xarakteristikalarini keltiramiz:

1. Bu variantda MB ichidagi ma'lumotlar maxsus dastur orqali qoraladi, ya'ni HTML hujjatlar bilan bog'langan ko'pchilik fayllar yaratiladi qabul qilingan fayllar bir yoki bir necha WWW-serverdan olib kelingan bo'ladi. Ularga kirish serverdagi statik gipermatnli hujjatlar orqali amalga oshiriladi.




1.2-rasm. Statik hujjatdagi mavjud ma'lumotlar bazasini birmartalik yoki davriy almashtirish.

Bu variantda minimal boshlang'ich chiqimni xarakterlaydi. Bu shunisi bilan sifatliki, undagi ma'lumotlar massivi kichik ekanligi va ularni oddiy strukturaga egaligidadir va kamdan-kam almashtiriladi.

Almashtiruvchi sifatida avtomatik yoki yarmi avtomatik statik hujjatlarni qayta ishlovchi dastur komplekslari qatnashishi mumkin.

2. Dinamik gipermatnli hujjatlarni mavjud ma'lumotlar bazasi asosida yaratish.



1.3-rasm. Dinamik gipermatnli hujjatlarni mavjud ma'lumotlar bazasi asosida yaratish.

Bu variantda ma'lumotlar bazasiga kirish maxsus CGI-dastur orqali, WWW klient so'roviga WWW server ruxsat etilgan javob orqali amalga oshiriladi. Bu dastur so'rovlarni qayta ishlab, mavjud ma'lumotlar bazasidan qaraydi va HTML hujjatlarni tayyorlab klientga qaytaradi (1.3-rasm).


Bu yechim murakkab strukturaga ega katta ma'lumotlar bazalarini va qidirish sistemasini muximligini qo'llab-quvvatlash uchun sifatlidir. Bu variantda MB ni o'zgartirish WWW-interfeysi orqali amalga oshirilishi mumkin.

Bu variantni asosiy kamchiligi shundaki so'rovlarni qayta ishlash uchun ko'p vaqt ketadi, ma'lumotlar bazasiga kirish doimo ochiq bo'lishi zarur, ma'lumotlar bazasini qo'llab quvvatlovchi vositalarni qo'shimcha yuklash, so'rovlarni qayta ishlashda WWW server bilan bog'liqligidadir.

Bunday texnologiyani amalga oshirish uchun WWW-serverni ishlatiladigan dasturlar bilan bog'lovchi CGI - Common Gateway Interface ni

qo'llash zarur. Dasturlash tillarida dasturlash vositalarini qo'llash yetarlicha keng. SUBD uchun ichki dasturlash tili bo'lib, dokumentlarni generatsiya qilish uchun bu tilni variantlarini qo'llash xizmat qiladi.


3. Ma'lumotlar omborini yaratish SQL tili so'rovlari bilan yuqori mahsulli SUBD asosida quriladi. Asosiy SUBD dan omborga ma'lumotlarni davriy yuklash. Bu variantda ma'lumotlar ombori deb nom olgan texnologiyani qo'llash tavsiya qilinadi. WWW-serverdan turli xil so'rovlarni qayta ishlash uchun yuqori mahsulli oraliq MB qo'llaniladi. Oraliq , ma'lumotlar bazasini ma'lumotlar bilan to'ldirish asosiy ma'lumotlar bazasini to'ldiruvchi maxsus dasturlar tamonidan amalga oshiriladi (1.4-rasm).



1.4- rasm. Bosqich 1- ma'lumotlarni yuklash.

Ko'rilgan variant oldingi sxemaning barcha kamchiliklaridan xoli. Bundan tashqari asosiy ma'lumotlar bazasi bilan ma'lumotlar omborini sinxronlashgan ma'lumotlari o'rnatilgandan keyin, ma'lumotlar omboriga foydalanuvchi interfeysi joylashtirilgan bo'lishi mumkin. Bu ishlab chiqarish va ishonchlilikka bog'liq ravishda ish o'rinlarini taqsimlashni amalga oshirishga yordam beradi.

Bu sxemaning qiyin bo'lishiga qaramasdan WWW kirishdagi berilgan bir necha ma'lumotlar bazasini ta'minlash masalasi yo'lga qo'yish chiqimi doimo oshib boradi.



1.5-rasm. Bosqich 2-so'rovlarni qayta ishlash.

WWW interfeyslarini qayta ishlash tezligini oshirish za WWW so'rovlarini qayta ishlash unumdorligini oshirish asosi bo'lib, gipermatnli hujjatlarni yaratish uchun SUBD inng ichki tillarini qo'llash hizmat qiladi.

Ma'lumotlar omborida mavjud asosiy ma'lumotlar bazasini yuklash uchun hamma hisoblangan yechimlar (dasturlash tillari, integrallashgan vositalar) va mahsus yuklash vositalari (SQL serverni o'rnatish va ma'lumotlar omborini qo'llab - quvvatlash uchun) qo'llaniladi.

Ma'lumotlar bazasiga WWW-kirishni qo'llab-quvvatlash yuqorida keltirilgan variantlarni amalga oshirish paytida ish hajmidan yuzaga keladi. Birinchi variantni amalga oshirish mavjud ma'lumotlar bazasida joylashgan hamma ma'lumotlarni qayta ishlash ketma-ketligi bilan bog'lik . Zarur formatdan va matn formatdan HTML formatida mavjud jadvalni chiqarish vositasini qayta ishlash uchun 1- 3 kun kerak Indeksli strukturani qurish vositasini qayta ishlash mehnat talab qiladigan ish bo'lib, u 1-3 hafta muddatni talab qiladi.


Ikkinchi va uchinchi variantlar uchun interfeys qurish ish hajmi umuman aytganda mavjud informatsion sistemalarni yaratishda bu interfeyslarni qurish ish hajmi bilan ekvivalent. Uchinchi variantda qo'shimcha ish sarfi ma'lumotlarni ma'lumotlar omboriga yuklashga olib boradi. Ma'lumotlarni yuklash paytida strukturani va nomni o'zgartirmaslik ish sarfi natijasida kelib chiqishi mumkin:

1- 2 jadval 1-2 kunda bir qayta ishlovchi uchun murakkabligidan va jadval hajmidan qat'iy nazar yuklash texnologiyasi otladka sharti asosida.

Ma'lumot bazasiga turli qayta ishlash vositalari interfeyslarini qo'llash paytida ish sarfi oshib borishi mumkin. Interfeyslarni qayta ishlashda ish sarfini kamayishi bo'yicha ro'yhati quyidagicha bo'ladi:

- C tilidagi biblioteka va funksiyalar,
- Perl tili,
- WOW paketi, va
- COLD FUSION.

Iqtidorli talabalarga o'quv-uslubiy interaktiv xizmat ko'rsatuvchi veb sayt yaratishda internet muhiti orqali amalga oshiruvchi dasturiy ta'minot yaratish uchun elektron ma'lumotlar bazasidan foydalanish zarur bo'ladi. Kompyuter tarmoqlari uchun yaratilgan dasturiy ta'minotlarni asosan ko'pchiligi Veb - sahifa ko'rinishida tashkil etilib, ularda foydalanuvchi interfeysi Veb ko'rinishida amalga oshiriladi. Demak veb sayt dasturiy ta'minoti uchun zarur ma'lumotlar bazasini boshqarishda tanlanadigan ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimlariga (MBBT) Veb - texnologiyalari orqali murojat etish imkoniyati mavjud bo'lishi lozim. Bunig uchun MySQL ma'lumotlar bazasini boshqarish sistemasi tanlanadi .Veb-texnologiya asosida Veb - server tomondagi ma'lumotlar bazasiga murojatni amalga oshirish modelini quyidagicha tasvirlash mumkin (2.6. rasm)



1.6. rasm. Ma'lumotlar bazasiga murojaat etish moduli.

1.6. rasmda tasvirlanganidek Veb - brouzer, ya'ni foydalanuvchi bergan so'rovga Veb - server javob berishi uchun mahsus dastur - PHP skriptni ishga tushiradi. Bunda Veb -server PHP skriptga parametr sifatida foydalanuvchi so'rovidagi parametrlarni beradi. PHP - skript o'z navbatida MySQL ma'lumotlar bazasini boshqarish sistemasiga murojat qiladi va berilgan parametrlar asosida ma'lum amallarni bajaradi. Olingan natijalar Veb- server tomonidan HTML hujjat shaklida so'rov bergan foydalanuvchiga va mijozga javob sifatida jo'natiladi.

Toshkent axborot texnologiya universitetining talant.atdt.uz web saytini dasturiy ta'minotini loyihalash va yaratishda PHP tildan va MySQL ma'lumotlar bazasidan foydalanilgan.

PHP tili va MySQL ma'lumotlar bazasi haqida asosiy tushunchalar

Ma'lumki internet tarmoqlararo axborot almashinuvini ta'minlovchi magistraldir. Uning yordamida dunyo bilimlar manbaiga kirish, qisqa vaqt ichida ko'plab ma'lumotlar yig'ish ishlab chiqarishning va uning texnik vositalarini masofadan turib boshqarish mumkin. Shu bilan bir qatorda internetning ushbu imkoniyatlaridan foydalanib turmoqdagi begona kompyuterlarni boshqarish ularning ma'lumotlar bazasiga kirish, nusxa ko'chirish g'arazli maqsadda turli xil viruslar tarqatish kabi noqonuniy ishlarni amalga oshirish mumkin. Internetda mavjud bo'lgan ushbu xavf, informatsion xavfsizlik muammolari bevosita tarmoqlarning xususiyatlaridan kelib chiqadi.

Internetda tarmoqlararo axborot almashinuvini ta'minlovchi dastur bu PHP dasturlash tilidir.

PHP tili doimiy ravishda takomillashmoqda. PHP dasturlari ikki usulda bajarilishi mumkin: Veb-server tomonidan stsenariy ilovasi va konsol dasturi sifatida.

PHP odatda Internet bilan bog'liq dasturlar yaratish uchun ishlatiladi. Lekin PHP dan komanda satrlar interpretatori foydalanish mumkin. Ohirgisi

CORBA va COM interfeyslar hamda PHP- GTK kengaytmasi yordamida mumkin. Bu holda quyidagi masalalarni echish mumkin:

- Interaktiv komanda qatorlari yordamida ilovalar yaratish;
- Kross-platformali GUI ilovalarni PHP- GTK bibliotekasi yordamida yaratish;
- Windows va Linux uchun ba'zi masalalarni avtomatlashtirish.

Serverga brouzerning murojlat qilishida yordamida PHP-stsenariylari bajarilishini ko'rib chiqamiz. Avval brouzer PHP kengaytmali sahifani so'raydi, so'ngra web-server dasturni PHP mashinadan o'tkazadi va natijani HTML-kod shaklida qaytaradi. Agar standart HTML sahifani olib, kengaytmasini PHP ga o'zgartirilsa va PHP mashinadan o'tkazilsa, foydalanuvchiga o'zgartirmasdan qaytaradi.

TATU ning talant.atdt.uz veb saytni yaratishda foydalanilgan asosiy PHP tili operatorlarini keltirib o'tamiz:

If...else operatori

Bu PHP dasturlash tilidagi barcha dasturlash tillari kabi juda muhim operatoridir. U shartga bog'liq ravishda kod fragmentini bajarishga mo'ljallangan. *If...else* operatorining strukturasini quyidagicha ifodalash mumkin:

if (ifoda) *bajariladigan_blok*

else bajariladigan_blok1

Bu yerda ifoda PHP dasturlash tilidagi ixtiyoriy to'g'ri ifodadir (ya'ni biror qiymatga ega). Skriptni qayta ishlash jarayonida ifoda mantiqiy tipga o'zlashtiriladi. Agar natijada qayta ishlangan ifoda qiymati rost (True) bo'lsa, u holda *bajariladigan_blok* bajariladi. Aks holda *else* operatori bajarilib, bu holatda yangi shartda biror bir amal bajariladi. Agarda *bajariladigan_blok* bir nechta buyruqlardan iborat bo'lsa, u holda ular figurali qavslarga { } olinishi shart.

<?php

```

if($result){

$report .=<<<EOF

<p align=center><b>Данные успешно занесены</b></p>

EOF;

}}

else {

$report .=<<<EOF

Заполните правильно поля:<br>

<blockquote><span style="color:red">

EOF;

foreach($alert as $alert_view){$report .="$alert_view<br>";}

$report .=<<<EOF

</span></blockquote>

EOF;

}

}

?>

```

Endi esa, mazkur talant.atdt.uz veb sayt uchun MySQL server bilan ishlash jarayonini ko‘rib o‘tamiz:

MySQL server bilan ishlash

MySQL yordamida MySQL-serverga ulanish, SQL-so‘rovlarni bajarish va shu so‘rovlar natijalarini ko‘rib chiqish mumkin. MySQL serveriga MySQL

dasturi yordamida bog‘lanish uchun foydalanuvchi nomini va odatda parol kiritish lozim. Agar server va klient har xil mashinalarda joylashgan bo‘lsa, MySQL serveri ishga tushirilgan xost nomini ko‘rsatish lozim

```
<?php  
  
$db = mysql_connect ("localhost","talant","123");  
  
mysql_select_db ("atdt",$db);  
  
?>
```

Murojaat huquqlarini sozlashda quyidagi qoidalarga amal qilish kerak:

- Server nomi va db jadvaldagi maydon nomi SQL tili regulyar ifodalarini o‘z ichiga olishi mumkin: % va _. Boshqa maydonlarda ulardan foydalanish mumkin emas.

- Server nomi domenli nom, localhost nomi, IP adres yoki SQL ifoda bo‘lishi mumkin. Bo‘sh maydon " server nomi" ixtiyoriy serverni bildiradi.

- Maydon db ma’lumotlar bazasi nomi yoki SQL ifodadir.

- Bo‘sh foydalanuvchi nomi ixtiyoriy foydalanuvchiga ekvivalentdir.

- Bo‘sh parol ixtiyoriy parolga ekvivalent. Siz superfoydalanuvchi(super-user) yaratishingiz mumkin, unga foydalanuvchilar jadvali 'Y' gida hamma huquqlarni o‘rnatish yo‘li bilan. Bu foydalanuvchi DB jadvalidagi qiymatlarga qaramasdan ixtiyoriy o‘zgartishni qilishi mumkin!

- Severlar jadvali tekshiriladi faqat va vaqat db jadvalida "server nomi" maydoni bo‘sh bo‘lsa.

- Hamma jadvallar host-user-db bo‘yicha tartiblanishi mumkin.

Veb ishlanmalarni tayyorlashda AJAX texnologiyasining qo‘llanilishi

Birinchi bo‘lib AJAX termini 18 fevral 2005 yil Djessi Djeymos Garretning “Veb ishlanmalarga yangi yondashuv” maqolasida chop etildi.

Garret mijozlari taklif qilgan yangi texnologiya uyishmasini nomlash maqsadida bu terminni o`ylab topgan. Ammo u yoki bu texnologiya boshqacha shaklda mavjud edi va oldinroq ishlatilgan edi. Masalan, 1996 yil Internet Explorer 3 da paydo bo`lgan HTMLning IFRAME elementi. AJAX texnologiyasi Google kompaniyasi o`zining Gmail, Google Maps va Google Suggest loyihalaridan keyin ommabop texnologiya aylandi.


Agarda biror bir dastur interfeys yaratilishda foydalanuvchi bilan qulay muloqatda bo`lsa demakki bu web ishlanmalardir.

AJAX ni to`liq texnologiya deb nomlab bo`lmaydi. U bir nechta texnologiyalarning birlashmasidan iborat. Bu texnologiyalarni birgalikda ishlatganda ko`proq foyda beradi. AJAX tarkibiga keruvchi texnologiyalar quyidagilar:

- Veb sahifani standart ko`rinishini ta`minlaydiganlar, masalan **XHTML**, **CSS**;
- Ma`lumotlarni dinamik ko`rinishini va foydalanuvchi bilan birgalikda ishlay olish xususiyati - **Document Object Model**;
- Ma`lumotlar almashinuvi va ularni qayta ishlay - **XML** va **XSLT**;
- **XMLHttpRequest** yordamida serverdan assinxron ma`lumotlarni qabul qiluvchi maxanizm va hammasini birlashtiruvchi **JavaScript**;

Klassik Veb ishlanmalar quyidagi usulda ishlaydi: foydalanuvchilarning hamma harakati serverga murojatlardan iborat. Server barcha so`rovlarni qayta ishlaydi – ma`lumotlarni qabul qiladi, sonlarni tartiblaydi, barcha ma`lumotlarni hisobini oladi va keyingi foydalanuvchiga ba`zi bir HTML sahifani yuboradi. Bu yo`nalish boshida gipermatnli ma`lumotlarni saqlash uchun ishlab chiqarilgan edi.

Bu model ishlab chiqish uchun qulay, ammo ishlatish uchun emas. Server ma`lumotlarni qayta ishlayotgan paytda foydalanuvchi nima qiladi? To`g`ri u kutadi. Biri operatsiya tugab keyingisi amalga oshishida yana kutadi. Veb ishlanmalarni ishlayotgan paytda foydalanuvchi sahifaning ko`p marotaba yuklanishini kutishni oldini olishga harakat qilinadi.





Standart veb ishlanma modeli bilan AJAX texnologiyasi modelining farqi

AJAXning farqi

Ajax texnologiyasi oraliq qatlamlari evaziga web ishlanmalarda bir tekis boʻlmagan jarayonlardan xolos boʻlishga imkon yaratadi. Yangi qatlan qoʻshilish web ishlanmalarni tezligini kamaytirganday tuyilishi mumkin ammo buning tamomila aksi boʻladi. Veb ishlanmada sahifani toʻlli yuklar oʻrniga brouzer oʻziga kerakli qismini yuklaydi. Bu **JavaScript** tilida yozilgan va odatda freymlarda berkitilgan boʻladi. Bu Veb sahifaning koʻrinishiga va server bilan oʻzaro aloqani taʼminlaydi. AJAX foydalanuvchiga serverga murajatlarga boʻgʻliq boʻlmagan xolda u bilan assinxron aloqani taʼminlab beradi, Shuning

qilib foydalanuvchi serverni biror ish qilishini kutib o'zining browserida oq sahifani yoki qum soatni ko'rmaydi.



Standart sinxron veb ishlanmalar sxemasi (yuqori qismida) va assinxron AJAX texnologiya (pastki qismda) farqi.

HTTP - so'rovni talab qiladigan harakatlarni o'rniga **JavaScript** tilidan foydalanib AJAX so'rov amalga oshiriladi. Foydalanuvchining serverga murojat talab qilmaydigan har bir harakati, masalan ma'lumotlarni tekshirish, tahrirlash va hattoki navigatsiya AJAX tomonidan mustaqil ravishda amalga

oshiriladi. Agarda AJAX ga ba`zi ma'lumotlar uchun serverga murajat kerak bo`lib qolsa, u kerakli qo`shimcha interfeysni yuklaydi yoki serverga ba`zi ma'lumotlarni tashlaydi. Bu jarayon assinxron ravishda ***XML*** ma'lumot almashinuvi yordamida amalga oshiradi va foydalanuvchiga jarayonni kutishsiz bajaradi.

Hozirgi kunda ***Google*** kompaniyasi ko`p miqdordagi mablag`ini AJAX texnologiyasini rivojlantishiga ajratyapdi. ***Googlening*** hozirgi kunda ishlab chiqirilayotgan barcha mahsulotlari - ***Orkut, Gmail, Google Groups, Google Sugest*** va ***Google maps*** – AJAX texnologiya yordamida ishlab chiqarilgan.

Bu mahsulotlar shuni ko`rsatadiki AJAX oddiy texnologiya emas balki butun dunyoda ishlatilayotan eng qulay va sifatli texnologiya. Shuningdek AJAX ixtiyoriy hajmda bo`lishi mumkin.

Masalan. Ovoz berish tugmasini bosganimizda brouzerdan serverga ma'lumot boradi. Server o`z navbatida brouzerga ovoz qabul qilinganligi to`g`risida ma'lumot beradi.

Bu yerda ovoz berish tugmasining kodi

```
<input value="Ovoz berish!" onclick="vote()" type="button" />
```

Bosilgan paytda u vote() funksiyasiga murojat qiladi. Bu funksiya serverga so`rov yuboradi. Javob kutadi va keyin natijani ko`rsatadi.

```
<div id="vote_status">Bu yerda serverning javobi bo`ladi </div>
```

Uni qanday ishlashini to`liq ko`rib chiqaylik.

Server bilan ma'lumot almashish uchun maxsus XMLHttpRequest obyekti ishlatiladi. U serverga ma'lumot uzatish va qabul qilish xususiyatiga ega. Uni quyidagicha hosil qilish mumkin.

```
function getXmlHttp(){
```

```
var xmlhttp;
```

```
try {
```

```

xmlhttp = new ActiveXObject("Msxml2.XMLHTTP");

} catch (e) {

try {

xmlhttp = new ActiveXObject("Microsoft.XMLHTTP");

} catch (E) {

xmlhttp = false;

}

}

if (!xmlhttp && typeof XMLHttpRequest!='undefined') {

xmlhttp = new XMLHttpRequest();

}

return xmlhttp;

}

```

Vote funksiyasini ishlash prinsipi quyidagicha.

```

function vote() {

var req = getXmlHttp()

var statusElem = document.getElementById('vote_status')

req.onreadystatechange = function() {

    if (req.readyState == 4) {

        statusElem.innerHTML = req.statusText;

        if(req.status == 200) {

```

```

        alert("Serverdan javob: " + req.responseText);
    }

}

}

req.open('GET', '/ajax_intro/vote.php', true);

req.send(null);

statusElem.innerHTML = 'Serverdan javob kutypman...'

}

```

Afzalliklari.

- **Trafikni tejash** – AJAX texnologiyasini ishlatish veb ishlanmalar bilan ishlaganda trafikni kamayishiga olib keladi. Bunga sabab veb ishlanma to`liq veb sahifani to`liq yuklash o`rniga katta bo`lmagan qismini yangilashi.
- **Serverning ishlashini osonlashtirish** – AJAX serverni ishlashini bir necha barobarga kamaytirishi mumkin. Masalan, pochta bilan ishlaydigan web sahifalarda kelgan hatga javob yozishda serverga faqatgina ma'lumotlar bazasiga o`zgartirish kiritishi va mijozga xatni yuborikganligi haqida ma'lumot yuborishi kifoya.
- **Interfeys reaksiyasining tezlashishi** – Faqatgina kerakli joyni o`zgartirish kerak bo`lganligi sababli foydalanuvchi o`z harakatiga javobni tezroq ko`rishi mumkin bo`ladi.

Kamchiligi

- **Brouzerning standart instrumentlari bilan mos kelmasligi** – Dinamik yaratilgan sahifalar brouzerning ro`yhatidan o`tmaydi va “Orqaga” tugmasi ishlamaydi. Bu tugma foydalanuvchilarga oldin ko`rilgan sahifalarga qaytish imkonini yaratadi. Ammo shunday skriptlar mavjudki bu muammoni hal qilishi mumkin.

- **Dinamik yuklanuvchi ma'lumotlar qidiruv tizimi uchun yopiq (agar qidiruvda so'rov oddiy yoki XMLHttpRequest emasligi tekshirilmasa) –** Qidiruv tizimlari JavaScript ni bajara olishmaydi va shuning uchun veb ishlanma yaratuvchilari alternative javob topishlari kerak.
- **Statistikani olib boruvchi eski metod uchun yomon –** Ko'pginina statistik servislar yangi sahifaning soniga qarab hisob – kitob olib borishadi. AJAX texnologiyasi keng qo'llanilgan veb sahifalarda bunday hisob – kitob metodi noto'g'ri hisoblanadi.

II Bob bo'yicha xulosa

Ushbu bobda quyidagi natijalarga erishildi:

- O'quv-uslubiy interaktiv xizmat ko'rsatuvchi dasturiy vositalarni loyihalashtirish va yaratish uchun talablar tanlab olindi;
- Iqtidorli talabalarga mo'ljallangan o'quv-uslubiy interaktiv xizmat ko'rsatuvchi dasturiy vositaning tuzilishi va uning o'ziga hos xususiyatlari, ayrim muammolarini ko'rib chiqildi;
- Iqtidorli talabalarga o'quv - uslubiy interaktiv xizmat ko'rsatuvchi dasturiy ta'minotni yaratish texnologiyalari o'rganildi;

III BOB. O‘QUV-USLUBIY INTERAKTIV XIZMAT KO‘RSATUVCHI TALANT.ATDT.UZ DASTURIY TA‘MINOTNI YARATISHNING TEXNOLOGIK ASOSLARI

1. O‘quv uslubiy interaktiv xizmat ko‘rsatuvchi talant.atdt.uz dasturiy ta‘minotning maqsadi va vazifalari

Mamlakatimizda har tomonlama barkamol avlodni tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilangan. Zamon talablariga javob beradigan malakali mutaxassislar tayyorlash uchun barcha imkoniyatlar muhayyo qilinmoqda. Xususan, iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va ularning iste’dodini to‘la yuzaga chiqarish maqsadida mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan davlat va jamoat tashkilotlari tomonidan turli loyihalar, ko‘rik-tanlovlar tashkil etilib, iqtidorli yoshlar muntazam rag‘batlantirib kelinmoqda.

Mamlakatimizda barcha jabhalarda izchillik bilan amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida yosh avlod kamoloti borasida g‘amxo‘rlik ko‘rsatish ustuvor o‘rin tutadi. Ta‘lim-tarbiya, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy himoya, ma‘naviy-ma‘rifiy sohalardagi tub ijobiy o‘zgarishlar jarayonida yoshlarning huquq va manfaatlarini ta‘minlash, puxta bilim olishi, salomatligini mustahkamlashi uchun yetarli sharoit yaratishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Iqtidor egalarini aniqlash, har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish, faol yoshlarning eng ilg‘or g‘oya va tashabbuslarini hayotga tatbiq etish yo‘lida madad ko‘rsatish “O‘zbekiston madaniyati va san’ati forumi” jamg‘armasi faoliyatida ustuvor ahamiyat kasb etadi. Jamg‘arma tomonidan muvaffaqiyatli o‘tkazilayotgan “Navqiron O‘zbekiston”, “Kelajak ovozi”, “Yangi avlod”, Dizayn va moda haftaligi singari ko‘plab ijodiy loyihalar, ko‘rik-tanlovlar, festivallar, ta‘lim sohasidagi grant dasturlari, intellektual bellashuvlar buning dalilidir. “Iqtidorli talabalar uchun stipendiyalar”, “Ta‘lim grantlari” va “Sport grantlari” dasturlari – “O‘zbekiston madaniyati va san’ati forumi” jamg‘armasining ta‘lim sohasidagi yirik loyihalaridan. Bu esa jamg‘arma tomonidan o‘tkazilayotgan dasturlar ko‘lami va

nufuzi, ularga yurtimiz yoshlarining qiziqishi tobora ortib borayotganidan, ayni paytda ishtirokchilarining saviyasi, bilimi, tayyorgarlik darajasi tobora yuksalayotganidan dalolatdir.

Yurtimizda barcha jabhalarda yoshlar iste'dodini to'liq namoyon bo'lishi, ularga har tomonlama madad ko'rsatish, jamiyatimizning ishonchi va tayanchiga aylanishi uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Bunday doimiy e'tibor va g'amxo'rlik biz, yoshlarni Vatanimiz, xalqimiz oldidagi mas'uliyatni yanada chuqurroq his etishga, faol bo'lish, astoydil o'qib-izlanish, mustaqilligimizni mustahkamlashga da'vat etadi.


Iqtidorli talabalar bilan ishlash ko'lamining kundan-kunga kengayib borishi iqtidorli talabalarni izlash, aniqlash, ularni maqsadli tayyorlash va ilmiy-ijodiy faoliyatga jalb qilish ishlarni muvofiqlashtirib borishni taqozo etadi. Iqtidorli talabalarning ilmiy-ijodiy faoliyatini tashkil qilish va uni muvofiqlashtirib borishni Toshkent axborot texnologiyalari universitetida orttirilgan tajriba asosida keltiramiz. Universitetda "Iqtidorli talabalarning ilmiy jamiyati" tuzilgan bo'lib u samarali faoliyat olib bormoqda. Har yili o'tkaziladigan "Ilmiy g'oyalar yarmarkasi"da iqtidorli talabalarining ilmiy tadqiqot ishlari natijalari namoyish etib boriladi. Bu ishlarning pirovard natijasi iqtidorli talabalarning kelgusida ilmiy-tadqiqot ishlarini davom ettirishiga asos bo'lib xizmat qilib, universitetda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar ko'lamini yanada kengaytirishga, olinayotgan ilmiy natijalarni ta'lim va ishlab chiqarishga keng joriy qilishga yo'naltirilmoqda. Shuningdek, iqtidorli talabalar bazasini, ularga yetkazilishi kerak bo'lgan axborotlar oqimini boshqarib borish hamda ular faoliyatini doimiy kuzatish va monitoring qilib borish muammolarini keltirib chiqaradi. Bu yo'nalishdagi ishlarni axborot texnologiyalari asosida tashkil qilish va olib borish bu muammolarning ko'pchiligini hal qilishga imkon beradi. Aynan shu maqsadda, Toshkent axborot texnologiyalari universitetining iqtidorli talabalari bilan ishlash, ularning ilmiy-ijodiy ishlarga yo'naltirishga va ularga interaktiv xizmatlar ko'rsatishga mo'ljallangan *talant.atdt.uz* sayti yaratildi. Mazkur sayt "Yangiliklar", "Iqtidorli talabalar va ularning erishgan

yutuqlari”, “Tanlovlar,grantlar,stipendiyalar”, “Interaktiv test”, “Axborot resurs markazi”, “Virtual ta’lim tizimi”, “O‘z iqtidoringizni sinab ko‘ring”, ”Dunyodagi iqtidorli yoshlar haqida”, “Kutubxona” va “Fotojamlanma” kabi ruknlardan iborat.

